


**S.M.Matkarimova, Z.M.Raximova, Sh.F.Allanazarov**



**ABU ALI IBN SINO  
XALQ TABOBATI  
VA ZAMONAVIY  
TIBBIYOT ASOSCHISI**

**S.M.Matkarimova, Z.M.Raximova, Sh.F.Allanazarov**

**ABU ALI IBN SINO –  
XALQ TABOBATI VA ZAMONAVIY  
TIBBIYOT ASOSCHISI**



**АВИЦЕННА  
(Абу-Али ибн Сина)  
ок. 980-1037**

Urganch  
“Xorazm nashr matbaa”  
2020

- **S.M.Matkarimova, Z.M.Raximova, Sh.F.Allanazarov.** Abu Ali ibn Sino – xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asoschisi. Monografiya. Mas’ul muharrir: O’tkir Abdullayev. Urganch: “Xorazm nasht matbaa”, 2020-yil. – 56 b.

**Mualliflar:**

**Sadoqat Matkarimova**, UrDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**Zamira Raximova**, “Ibn Sino” jāmoat fondi Xorazm viloyat bo’linmasi ijrochi direktori.

**Shoxrux Allanazarov**, UrDU talabasi.

**Mas’ul muharrir:**

**O’tkir Abdullayev**, tarix fanlari doktori.

**Taqrizchilar:**

**Qudrat Masharipov**, UrDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**Nazokat Matkarimova**, UrDU katta o’qituvchisi – PhD.

**Gulnoza Sultanova**, SamDU dotsenti – PhD.

*Mazkur monografiya Abu Əli ibn Sino va uning tarixda tutgan o’rni, olimning ilmiy merosi, asarlarining ahamiyati hamda hozirgi kunda o’rganilishi kabi masalalarga bag’ishlangan. Zero, bugungi kunda ibn Sino ilmiy merosini o’rganish ishlari jadal tus oldi va natijada chet el hamda O’zbekistonda maxsus ilmiy yo’nalish – Sinoshunoslik vujudga keldi. Jahonning turli kutubxonalarida ibn Sino asarlarining qo’lyozmalari saqlanadi. Shu bilan birga ibn Sino ilmiy merosini o’rganuvchi tadqiqotchilar ham ko’pchilikni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib ushbu monografiyada ibn Sino ilmiy merosi bilan shug’ullanuvchilar ma’lumotlariga va ko’plab ilmiy adabiyotlarga tavsif berilgan.*

*Monografiya 63-02/05 sonli “Ibn Sino va zamonaviylik” davlat granti loyihasi doirasida bajarilgan.*

ISBN 978-9943-6692-2-4

© S.M.Matkarimova, Z.M.Raximova, Sh.F.Allanazarov.

Abu Ali ibn Sino – xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asoschisi.

© “Xorazm nashr matbaa”, 2020.

## SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Tarix bugun va kelajakning ko‘zgusi. Mustaqil hayotimizda buyuk maqsadlar sari intilishimiz uchun sharoitlarning yaratilganligi hamda buyuk kelajak uchun madaniy-ma’naviy merosga ega bo‘lishimiz darkor. *“Hamma o‘z tarixini ulug’laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak...”<sup>1</sup>* – deb aytib o‘tgan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev parlamentimiz Oliy Majlisiga 2018-yilgi “Murojaatnoma”larida: *“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”<sup>2</sup>*, degan edilar. Bundan ko‘rinadiki, alloma va adiblarimizning boy ilmiy merosini o‘rganib, boshqalarga ham o‘rgata olishimiz ham katta ish hisoblanadi.

Movarounnahr zamini o‘rta asr musulmon sharqida ma’rifat va madaniyat maskani sifatida dong taratgan o‘lka hisoblangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, Beruniy, Zamaxshariy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan<sup>3</sup>. Abu Ali ibn Sino ilm va madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo‘sghan siymolardan biridir. Uning ilmiy merosini o‘rganishimiz orqali fanda katta yutuqlarga erishgan bo‘lamiz. Biz haqiqatda ham uning asarlari orqali ilmlar mundarijasi va boyligi, ma’naviy hayotning barcha masalalari, g‘oyaviy muammolari bilan to‘la-to‘kis tanisha olamiz.

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Islom sivilizatsiyasi markazining qurilish jarayoni bilan tanishdi // газета.uz. 21-dekabr, 2018.

<sup>2</sup> “Миллий тикланишдан миллий юксалиш сарі”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг асарлари ва маъruzalariidan oliningan fikrlar (ўкув кўлланма). – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б. 144

<sup>3</sup> Мавролов А. ва бошқалар. Шарқ ренессанси даври алломалари ва мутафаккирларининг илмий-фалсафий мероси. – Т.: Sano standart, 2017. - Б. 15-16.

## I BOB. MAVZUNING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI

### 1.1 Mavzuning tarixshunosligi

Ibn Sino ijodi va ilmiy merosi bilan qiziqish o'rta asrlardan boshlangan. Bugungi kunda ham allomaning ilmiy merosini o'rganish orqali ko'pgina tadqiqotchi olimlar o'zlarining ilmiy asarlarini yozib kelmoqdalar. Shuning bilan birga ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan ko'plab tarixiy asarlar yozuvchilar tomonidan keng yozilib kelinmoqda. Shundan kelib chiqib, Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyatini 2 xil usulda: ilmiy asarlar va adabiy asarlar orqali o'rganish mumkin.

Islom dini tarqalgan o'lkalarda ibn Sino asarlari o'z tili – arabchada mutolaa qilib keltingan, zaruratga qarab sharhlar bitilgan, tarjima etilgan va ba'zi "Qonun"ga o'xshaganlari qisqartirilib foydalaniilgan.

Ibn Sino merosi Sharqdagina ermas, G'arbda ham keng ko'lamda o'rganilgan va tarjima qilingan. ibn Sino ijodini o'rganish borasida bibliografik asarlar yaratildi, ayniqsa o'rta asr olimlariga bag'ishlangan ba'zi bir asarlarda ma'lum bo'limlar ajratilib, ibn Sino haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Masalan, bulardan nemis olimi Karl Brokkelmanning "Arab adabiyoti tarixi" asarini ko'rsatish mumkin. 1937-yili Istanbulda "Ibn Sino" degan to'plam nashr etildi. Unda olimning hayoti, falsafiy qarashlari, tibbiy va adabiy merosiga oid rang-barang maqolalar bosildi. Turk olimlaridan Usmon Ergin Turkiya kutubxonalarida saqlanadigan ibn Sino asarlari katalogini nashr etdi. Undan keyin Ergimning bu asari 1956-yili Istanbul universiteti va Tib tarixi instituti tomonidan alohida nashr etildi<sup>4</sup>.

1955-yili o'zbek olimi Sodiq Mirzayev Toshkentda ibn Sinoning O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo'lyozma asarlarini nusxalarining bibliografiyasini tuzib chiqqan. Arab olimi Jorj Shahota Qanavotiy "Ibn Sino ta'liflari" bibliografik asarini, eronlik olim Yahyo Mahdaviy Ibn Sino asarları bibliografiyasini nashr qildirdi. So'ngra yana bir Eron olimi Said Nafisiyning Ibn Sino haqidagi kitobi nashr etildi.

<sup>4</sup> Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаётин ва ижодий мероси. – Т.: Фан, 1980. – Б. 15.

1937-yili Ibn Sino vafotiga 900 yil to'lishi munosabati bilan arabshunoslarning shu yili Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)da chaqirilgan ikkinchi sessiyasida (19-23-oktabr) ibn Sino merosini o'rghanish masalasi maxsus o'rin egalladi, bu sessiyaning nashr etilgan materiallari to'plamiga muqaddima yozgan I.Yu. Krachkovskiy iborasi bilan aytganda, "Sessiya bu yili vafotiga 900 yil to'lgan buxorolik olim Ibn Sinoni chetlab o'tolmagan" edi. Sessiyada Ibn Sinoga bag'ishlangan maxsus seksiya ish olib bordi, olim ijodi va ilmiy merosiga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi. Sessiyada sovet olimi A.Yu.Yakubovskiy "Ibn Sinoning davri" degan mavzuda ma'ruza qildi. Sessiyada yana A.P.Kovalevskiy "Ibn Sinoning al-Juzjoniy tuzgan biografiyasi va uning adabiy tarixi", Ye.E.Bertelsning "Ibn Sino va fors adabiyoti", A.Ya.Borisovning "Ibn Sino tabib va faylasuf sifatida", I.I.Ginsburgning "Arab tabobati va Sharqshunoslik institutidagi ibriy qo'lyozmalari bo'yicha Ibn Sinoning "Qonun" va "Urjuza" asarlari", A.E.Smidtning "Ibn Sinoning qo'lyozma asarlari O'zbekiston SSR Davlat kutubxonasida" degan ma'ruzalarini tinglandi. Keyinchalik bu ma'ruzalarning hammasi ilmiy jurnal va to'plamlarda bosilib chiqdi.

Sadriddin Ayniy ham "Abu Ali ibn Sino" risolasini 1939-yilda lotin imlosida chop ettirgan edi. O'zbekistonda Ibn Sino haqida ilk bor nashr etilgan ilmiy nashrlar sirasiga A.Semyonovning rus va o'zbek tillarida bosilgan maqolalarini kiritish mumkin<sup>5</sup>.

Ibn Sino ijodini o'rghanish va uning nomini ellarga taratishda P.M.Faktorovichning xizmatlarini ham ta'kidlab o'tish kerak. Uning "Ibn Sino buxorolik buyuk olim", "Ibn Sino salaflari", "Ibn Sinoning Sharqda eng yaqin salaflari", "Buxorolik buyuk olim ibn Sino, uning salaflari, biologiya va meditsinaning ba'zi aktual masalalar bilan ular ishining bog'liqligi", "Buyuk olim va tabib ibn Sino", "Buyuk tabiatshunos" kabi maqolalarini matbuotda bosilib chiqqan.

Ibn Sino ilmiy merosining O'zbekistonda o'rghanilishi haqida S.Azimjonovaning bir qancha maqolalari ham e'lon qilingan. Garchi bu maqolalar nomi O'zbekistonda qo'lyozma boyliklarini o'rghanishga bag'ishlangan bo'lsa ham, u yerda ibn Sino merosi haqida anchagina fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari dunyoning ko'p sharqshunoslik markazlarida saqlanadi. Shulardan biri, Leningraddagi M.Y.Saltikov-

<sup>5</sup> Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаёти ва ижодий мероси. – Т.: Фан, 1980. – Б. 16-17.

Shedrin kutubxonasi dagi mayjud qo'lyozma asarlaridir. Bu haqida o'z vaqtida K.B.Starkova va P.G.Bulgakovlar, Bokudagi Ibn Sino asarları haqida esa M.Sultonovlar yozgan edi. Toshkentda Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan ibn Sino qo'lyozma merosini o'rganish borasida Q.Munirovning "Sharq qo'lyozmalari xazinasi" risolasini ham ko'rsatish kerak.

1954-yili Ibn Sino "Tib qonunlari"ning birinchi kitobi tarjimasi rus va o'zbek tillarida nashrdan chiqdi. Kitobga tibbiyot fanlari tarixchisi, SSSR Tibbiyot Fanlari akademiyasining muxbir a'zosi, tibbiyot fanlari doktori, professor B.D.Petrov "Ibn Sino – "Qonun"ning yaratuvchini" degan muqaddima yozgan. Keyin u "Ibn Sino – klinitsist" degan katta tahliliy maqolasini ilova qilgan. Muallif muqaddimada ibn Sino hayoti va ijodiga to'xtagan bo'lsa, ikkinchisida allomaning tibbiyotdingi yutuqlari haqida qisqa ocherk bergen. Undan tashqari, bu jildning o'zbekchasida A.Asqarov (7 – 9- betlar), ruschasida V.N.Ternovskiy (7 – 10-betlar) lar kichik so'zboshi ham yozishgan<sup>6</sup>.

Ibn Sino tibbiy merosini ilmiy o'rganishda V.N.Ternovskiyning ham xizmati katta. U ibn Sino ijodini eng avval o'rgangan va qalamga olgan tib olimlaridandir. Uning ibn Sino hayoti va faoliyatiga oid asari 1937-yilda bositgan edi. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi ibn Sinoning "Tib qonunlari"ni tarjima va nashr etishga qaror qilgandan so'ng uning ruschasini tibbiyot nuqtayi nazaridan tahrir qilish ishiga V.N.Ternovskiy jalb qilingan edi. U "Qonun" ning birinchi kitobiga so'zboshi yozgan edi. Uning "Qonun"ni nashri haqida va ibn Sino portreti haqidagi maqolalari hamda u haqda to'plagan materiallari asosida 1969-yili "Ibn Sino" degan kitobi yuzaga keldi.

Ibn Sino "Qonun"i asosida anchagina ishlar qilindi, dissertatsiyalar yoqlandi, kitoblar yozildi. Masalan, L.Alaviy "Ibn Sino asarlarida oshqozon-ichak kasalliklari haqida" mavzuya nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shu munosabat bilan – "Ibn Sino asarlarida ich ketish kasalligining klassifikatsiyasi" kabi maqolalarini e'lon qildi. Ko'p o'tmay, 1963-yili V.Q.Jumayev "Ibn Sino xirurgiyasi" degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. V.Jumayevning bu ishi alohida kitob holida nashr etildi. V.Jumayev bu ish munosabati bilan bir necha ilmiy maqolalar e'lon qildi: "Ibn Sino "Tib qonunlari"da yaralar haqida ta'limot va ularning tarixiy o'zani", M.Maqsudov bilan hamkorlikda "Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" materiallari asosida

<sup>6</sup> Ирисов А. Абу Али ибн Сино хаёти ва ижодий мероси. – Т.: Фан, 1980. – Б. 17-20.

nerv sistemasining og‘riqlari” maqolalari bosilib chiqdi. Yana tib olimlardan Yo‘ldosh Orzumetov “Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari materiallari bo‘yicha jigar kasalliklariga oid tibbiy qarashlari” degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ko‘pgina olimlar – K.A.Xoliqov, M.S.Shoyusupova, Sh.Alimov, A.G‘ulomov, I.E.Akopov, X.G‘.G‘afurov, O.Shokirov, V.D.Gordeyeva, M.V.Borzov, M.I.Badanov, V.N.Bexterova va boshqa ko‘pgina olimlar Abu Ali ibn Sino bo‘yicha maqolalar e’lon qilganlar<sup>7</sup>.

Ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy fikrlarini o‘rganishda atoqli olim I.M.Mo‘minovning xizmatlari kattadir. U ko‘p yillar davomida Ibn Sino ijodini o‘rganishga rahbarlik qilib keldi. Uning bevosita rahbarligi va tahriri ostida 1957-yili rus tilida “O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir” to‘plam nashr etilgan. Bunda, albatta, Ibn Sinoga anchagini joy ajratilgan.

Faylasuflarimizdan V.Y.Zohidov Forobiy, Beruniy va Ibn Sino haqida “Uch titan” asarini yozdi. Asarning “Buyuk donishmand va shifokor” degan maxsus bo‘limi Ibn Sino ijodi, uning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlariga bag‘ishlangan.

O‘rta asr falsafasi va ijtimoiy qarashlari va ayni chog‘da Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganishda M.M.Xayrullayev asarlari diqqatga sazovordir. Uning Uyg‘onish davriga oid asari, akademiqning Falsafa va huquq instituti tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixi ocherklari” Ibn Sino hayoti, faoliyati, ilmiy merosi, borliq, bilimlar klassifikatsiyasi, umuman, dunyoqarashi haqida yaxshi manbalardir.

Ibn Sino va Beruniy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan falsafiy yozishmalar haqidagi A.Sharipov maqolalari ham diqqatga sazovordir. Uning “Beruniy va Ibn Sino o‘rtasida bo‘lgan yozishmalarning kam ma’lum bo‘lgan sahifalari”, “Beruniy bilan Ibn Sinoning falsafiy yozishmalari” kabi maqolalari ikki alloma o‘rtasidagi savol-javoblarni yoritgan. Bu yozishmalardan o‘sha davr olimlarini qiziqtirgan masalalar va ular fikr doirasini tasavvur qilish mumkin.

Ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy merosini o‘rganish haqida M.M.Xayrullayev, M.Baratov, O.Fayzullayev, Sh.Jo‘rayev, R.Imomaliyeva, N.Baratov, A.B.Jumayev, V.F.Reshetova kabilar faoliyatini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

<sup>7</sup> Ирисов А. Абу Али ибн Сино хаёти ва ижодий мероси. – Т.: Фан, 1980. – Б. 20-22.

Ibn Sino ijodini o'rganishda U.I.Karimovning ulkan faoliyatini alohida ta'kidlab o'tish zarur. "Tib qonunlari"ning rus va o'zbek tillariga qilingan tarjimalari tahririda U.Karimovning ulushi va xizmatlari kattadir. Uning "Ibn Sinoning ximiya-yi qarashlari haqida", "Ibn Sinoning "Qonun" asari haqida", "Ibn Sino bo'yicha fan klassifikatsiyasi", "Ibn Sino va Beruniy asarlari", "Kimyogarlar orzusi", "Buyuk alloma", "Ibn Sinoning tibbiy merosi haqida" kabi maqolalari chop etildi<sup>8</sup>.

Ibn Sinoning fizikaga doir asarlari haqida F.Zikrillayev "Beruniy va Ibn Sino asarlarida fizika masalalari" hamda M.Saidmurodov va M.Usimonovlar bilan hamkorlikda "Ibn Sinoning "Qurozayi tabiiyot" asarida fizika masalalari" asarini yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir ishlari bilan F.Inog'omjonova shug'ullanib, maqola e'lon qilgan. Ibn Sinoning arxitektura va shahar qurilishi borasidagi fikr-mulohazalarini Toshkentning keksa arxitektorlaridan M.S.Bulatov o'z maqolasida e'lon etgan. Ibn Sinoning geologiyaga oid qarashlari haqida O.I.Islomov o'zining "O'rta Osiyoda geologiyaga oid bilimlar tarixidan" kitobida va boshqa asarlarida to'xtalib o'tgan. Arabshunos Shoikrom Shoislomov Ibn Sinoning ma'danlarga oid bo'lgan kitobidan "Zilzila" fasli tarjimasini "Guliston" jurnali sahifasida nashr etgan.

Chet el olimlari F.Vyopke, M.Kantor, K.Lokoch va keyingi yillarda matematika tarixchilari V.A.Rozenfeld, X.M.Muhammadiyev, M.A.Ahadova va M.S.Shapirovalar Ibn Sinoning ensiklopedik harakterdagi "Shifo kitobi" ("Kitob ash-Shifo"), "Najot kitobi" ("Kitob an-Najot") va "Bilim kitobi" ("Donishnama") nomli katta hajmdagi asarlarida fizika-matematikaga doir ishlari yuzasidan olib borilgan ilmiy-tekshirish ishlarining natijasi, olimning fizika-matematika faniga ham o'z hissasini qo'shganligini ko'rsatadi<sup>9</sup>.

Shunday qilib, Ibn Sino merosi Sovet Ittifoqi davrida anchagina o'rganildi, olim haqida anchagina ommabop risolalar chop etildi. Chunonchi, Toshkentda Ibn Sino ijodini ommaviy tusda bayon etgan A.Qodirovning "Abu Ali ibn Sino", U.Muhamedovning "Fan yo'lida jafo chekkanlar" kabi risolalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mustaqillik yillarda ham, Ibn Sino jamoatchilik fondi tadqiqotchilari tomonidan va ko'plab Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati keng ko'lamda o'rganilib bormoqda. Bugungi kunda "Ibn Sino" jamoat fondi

<sup>8</sup> Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаётини ва ижодий мероси. – Т.: Фан, 1980. – Б. 29-31.

<sup>9</sup> Ахмедов С., Ахмедова Н. Ўрта Осиёда арифметика таракқиётини ва унинг ўқитилиш тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – Б. 32.

boshqaruvi raisi Nozimxon Mahmudov boshchiligidagi bir guruhi tadqiqotchilar Ibn Sino merosini o'rganish bo'yicha keng amaliy ishlarni olib bormoqdalar. Bugungi kunda bir qator tadqiqotchi olimlar, chunonchi, Z. Ishonxodjayeva, A. Madaminov, I. Asqarov, M. Badritdinova, F. Ibragimov, S. Ismoilov, G. Matkarimova, B. Duschanov, M. Mahmudov, F. Temirova, A. Usmonxo'jayev va boshqa shu kabilar Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi bo'yicha va bugungi kunda allomaning asarlari ahamiyati to'g'risida ilmiy maqolalar e'lon qilganlar.

Ibn Sino hayoti va faoliyati nafaqat ilmiy asarlar orqali tadqiq etilgan, balki, alloma hayot yo'li va ilmiy faoliyati haqida yozuvchilar badiiy shaklda o'z asarlarida keltirib o'tganlar. Abu Ali ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida Mirkarim Osim "Ibn Sino qissasi"ni, Maqsud Qoriyev "Ibn Sino" tarixiy romanini, Aziz Qayumov "Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino" asarini, Vera Smirnova-Rakitina "O'rta Osiyoning ming yil muqaddam yashagan jahonshumul olimi – ulug' hakimi, riyoziyuni, munajjimi, faylasufi, shoiri va bastakori Abu Ali ibn Sino qissasi"ni (To'xtasin Jalolov tarjimas), Mahmud Hakim Yayfoni (1850-1930) "Rais ul-hukamo Abu Ali ibn Sino qissasi"ni, Abdujalol Rahim esa "Abu Ali ibn Sino" kabi tarixiy-badiiy asarlarini yozganlar.

"Qanday zamon va qanday makonda yashashidan qat'iy nazar o'z maqsadlari yo'lidan qaytmagan, ortidan yaxshi nom qoldirish niyati bilan to'lib-toshgan bu buyuk siymo – Abu Ali ibn Sino nomini bugun butun dunyo ilm ahli e'tirof etadi"<sup>10</sup> deb yozib o'tgan edi Mirkarim Osim.

Yozuvchi Maqsud Qoriyev tarixiy romanining so'nggida quyidagilarni yozib o'tgan edi: "Ibn Sino haqidagi romanga qo'l urganimda bir tuyg'u meni chulg'ab olgan edi, katta bir savob ishga bel bog'laganimni bilib, tushunib turardim, ma'naviy faxrlanish hissiyoti hech qachon meni bark etmaganday edi. Ozod, istiqlolli porloq, O'zbekistonimizning davlat mustaqilligiga bir oddiy fuqaro sifatida o'z tarixiy asarlarim bilan ma'lum darajada hissa qo'shganimdan g'oyat mammunman. Zero, O'zbekiston qadimdan jahon madaniyati, ma'rifatiga qancha-qancha buyuk allomalarini yetkazib bergen buyuk yurtdir"<sup>11</sup>.

Rus adibasi V. Smirnova-Rakitinaning tarixiy asarini o'zbekchaga tarjima qilgan tarjimon To'xtasin Jalolov shunday yozgan ekan:

<sup>10</sup> Mirkarim O. Ibn Sino qissasi. – T.: Yangi asr avlod, 2018. – B. 2.

<sup>11</sup> Кориев М. Танланган асарлар. II жилд. Ибн Сино (тарихий роман). – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 197.

“Hurmatli rus adibasi Vera Alekseyevna zo‘r g‘ayrat va jasorat ko‘rsatib, shu mushkul mavzuda, O‘rta Osiyo xalqlariga behad yaqin bo‘lgan Abu Ali ibn Sino mavzusida roman yozibdi. Bu mavzu – yozuvchilik iste’dodidan tashqari, olimlikni, Ibn Sino bilgan hamma fanlar tarixidan ogoh bo‘lishni talab etadi. Bunday tayyorgarligi bo‘limgan har qanday adib yoki adiba jahonshumul olim obrazini yaratma olmasdi”<sup>12</sup>. Yuqoridaq fikrlardan ko‘rinib turibdiki, har qanday yozuvchi tarixiy asar yozish barobarida, o‘sha tarixiy davr va yaratmoqchi bo‘lgan tarixiy obrazini chuqur o‘rganib, tahlil qilgan holda, badiiy tasviriy bo‘yoqlar bilan shu davr muhitini o‘z asarida yoritib beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, buyuk alloma Ibn Sino merosi ko‘p yillar davomida bugungi kunda ham tarixchi olimlarimiz, filolog va faylasuf olimlarimiz, tibbiyot olimlari tomonidan o‘rganilib, tadqiq qilinib kelinmoqda.

## 1.2 Ibn Sino va uning tarixda tutgan o‘rni

Movarounnahr zamini o‘rta asr musulmon sharqida ma’rifat va madaniyat maskani sifatida dong taratgan o‘lka hisoblangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, Beruniy, Zamaxshariy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan<sup>13</sup>.

Abu Ali ibn Sino jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolardan biri bo‘lib, uning ilmiy ishlari xorazmlik buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlari bilan birgalikda o‘sha davr fani taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisini tashkil etadi.

Ibn Sinoning tarjimayi holi va zamoni haqida saqlanib qolgan, davrimizgacha yetib kelgan manbalarning ko‘rsatishicha, uning to‘liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Ammo qisqaroq qilib uni Abu Ali ibn Sino deb atashadi. Abu Ali uning kunyaside, ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh edi. Odatta arablarda o‘z nomini o‘g‘lining ismi bilan atash rasm bo‘lgan, buni ular “kunya” deb atashgan. Shuning uchun Ibn Sino ham o‘g‘il ko‘rgan-ko‘rmaganligidan qat’iy nazar, o‘ziga Abu Ali – Alining otasi

<sup>12</sup> Смирнова-Ракитина В. Ўрта Осиёнинг минг йил мукаддам яшаган жаҳоншумул олими – улуг‘ жакими, риёзини, мунахжими, файласуфи, шоирни ба бастакори Абу Али ибн Сино қиссаси. – Т.: Ёш гвардия, 1969. – Б. 5.

<sup>13</sup> Маврулов А. ва бошқалар. Шарқ ренессанси даври алломалари ва мутафаккирларининг илмий-фалсафий мероси. – Т.: Sano standart, 2017. – Б. 15-16.

deb kunya<sup>14</sup> qo'yib olgan va umrining oxirigacha u shunday atalib, bu nom unga ism darajasiga o'tib qolgan.

Abu Ali ibn Sinoning otasi Abdulloh asli hozirgi Afg'onistonning shimoli, Balxdan bo'lib, somoniylardan bo'lmish Nuh ibn Mansur Somoni (976-997)<sup>15</sup> davrida Buxoroga kelib qolgan. U "Hurmiton" qishlog'ida amir ma'muriyatini boshqarib kelgan. Bu qishloqning hozirgi nomi Romiton bo'lib, Buxoro viloyatining Peshku tumaniga kiradi. A.Yu.Yakubovskiyning yozishicha, Abu Alining otasi Hurmitonda aholidan soliq yig'uvchilarning boshlig'i, moliya amaldori bo'lgan. Uning amali yirik bo'lmasa-da, lekin o'ziga to'q kishilardan bo'lgan.

Ibn Sinoning onasi haqida uning nomidan bo'lak hech narsa ma'lum emas. Ibn Sinoning tarjimayi holi yozilgan eng eski manbalardan birining muallifi Bayhaqiyning yozishiga ko'ra, Abdulloh o'sha Romitonga yaqin bo'lgan "Afshana" degan qishloqda Sitorabonu degan qizga uylanadi. Amir zamonida bu qishloq Romiton tumaniga qaragan. Hozir Afshana degan nom xalq o'rtasida Isfane shaklida saqlanib qolgan. Bu nomdagi qishloq o'sha qadimgi Afshana deb bilinmoqda.

Abu Ali ibn Sino ana shu qishloqda hijriy (qamariy) hisobi bilan 370-yili safar oyida, milodiy yil hisobi bilan 980-yili avgust oyida dunyoga keldi. Safar oyi 16-avgustdan boshlanib, 14-sentabrgacha davom etadi. Ibn Sino mana shu oy ichida dunyoga kelgan. Hozircha uning tug'ilgan kuni aniqlanmagan. Safar oyining birinchi kuni 16-avgustga to'g'ri kelgani uchun ba'zan uni 16-avgustda tug'ilgan deb ham yozishadi<sup>16</sup>.

Afshana qishlog'i nomi ham Ibn Sino tug'ilgan qishloq sifatida tanildi. Shu tufayli bu qishloq nomi tarixiy manbalarda ko'pincha Ibn Sino nomi bilan bog'lanib keladigan bo'ldi. X asr tarixchisi Narshaxiy ta'biri bilan aytganda: "*Afshina katta bir shahar bo'lib, qal'asi bor. Bir necha qishloqlar unga qarashlidir. Odamlar u joyni tabarruk deydilar, haftaning muayyan bir kunida u yerda bozor bo'ladi*"<sup>17</sup>.

Buyuk olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino tarjimayi holining boshlang'ich qismini o'zi yozib qoldirgan. Muallifning hayot yo'li va

<sup>14</sup> Kunya – shajarani bildiradigan laqab.

<sup>15</sup> Nuh ibn Mansur (976-997) – somoniylar amiri. Ibn Sino "Mabohis nafsoniya" ("Nafsoniy bahslar") degan ilk falsafiy asarini shu amiriga bag'ishlagan. Bu asar "Hadiyat ar-rais" ("ar-Rais sovg'asi") degan nom bilan ham mashhur bo'lgan. Amir vafot etgan yilga e'tibor berilsa, ibn Sino bu asarini yozganida hali 17 ga to'lmagan bo'lib chiqadi.

<sup>16</sup> Ирисов А. Ҳаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 3-5.

<sup>17</sup> Гадоев К., Бердиева С. Жаҳонга шайх-олимлар: Буюк тадқиқотчилар ва сайёхлар ҳакида. – Т.: O'zbekiston, 2012. – Б. 42.

ilmiy faoliyatining so‘nggi yillari haqida olimning iltimosiga binoan uning sodiq shogirdi Juzjoniy bayon etgan<sup>18</sup>.

Abu Ali besh yoshga to‘lganida uning ukasi Mahmud tug‘iladi. Bu vaqtida otasi o‘g‘liga chuqurroq ta’lim berishni o‘yaydi. Lekin qishloqda ko‘p narsadan xabardor muallim topish va topilganda ham ular ta’limi bilan kifoyalanish Abdullohn qoniqtirmas edi.

Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sino oilasi poytaxt Buxoroga ko‘chib keladi va uni o‘qishga beradilar. Ibn Sino avval Qur‘on va adab darslarini o‘qiydi va o‘n yoshga yetar-yetmas, bu darslarni to‘la o‘zlashtirib oladi. Ayni vaqtida u arifmetika va algebra bilan ham shug‘ullanadi. Bulardan tashqari, uyida Abu Abdulloh an-Notiliy rahbarligida mantiq, geometriya va astronomiya fanlarini o‘qiydi. Shu bilan birga, Ibn Sino tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shug‘ullanadi, xususan tabobatni sevib o‘rganadi. U o‘zining tug‘ma iste’dodi va mehnatsevarligi tufayli darslarni osonlik bilan o‘zlashtirar va hatto muallimlariga noma'lum narsalarni ham kitobdan mustaqil o‘qib bilib olardi. Ayniqsa, tib ilmida u juda tez kamol topa boshladи<sup>19</sup>.

Ibn Sinoning tarjimayi holi bayon etiladigan eski manbalarda uning tabobat sohasidagi ustozi sifatida buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning nomi tilga olinadi. Qumriy o‘z davrining mashhur tabiblaridan bo‘lib, Somoniy amirlari orasida ham katta e’tibor qozongan. Ibn Sino o‘spirinlik vaqtlarida ancha keksayib qolgan Qumriy bilan yaqindan tanish bo‘lgan va uning tabobat sohasidagi darslaridan bahramand bo‘lgan. Qumriy 390/999-yilda Buxoroda vafot etgan. Uning ikkita asari bizgacha yetib kelgan – “Kitob al-g‘ino va-l-muno” (“Mukammal va maqsadlarga yetishtiruvchi kitob”), “Kitob at-tanvir fi-l-istilohot at-tibbiya” (“Tibbiy istilohlarni yorituvchi kitob”). Bulardan birinchisi inson a‘zolarida bo‘ladigan barcha kasalliklarni davolashga bag‘ishlangan bo‘lsa, ikkinchisini o‘sha davr tabobatida iste’molda bo‘lgan tibbiy atamalarning izohli lug‘ati deyish mumkin<sup>20</sup>.

Ibn Sino bilan yaqindan muloqotda bo‘lgan tabiblardan yana biri Xorazmda yashab ijod etgan Abu Sahl al-Masihiydir. Masihiy falsafa, astronomiya va matematikaga oid asarlar ta’lif etgan bo‘lsa ham, u asosan tabib sifatida mashhur. U Ibn Sino bilan Xorazmdan Xurosonga ketishda yo‘lda 40 yoshda (401/1010-yili) vafot etadi.

<sup>18</sup> Муаллифлар жамоаси. Буюк юрг алломалари. – Т.: O‘zbekiston, 2018. – Б. 67.

<sup>19</sup> Ирисов А. Ҳаким ибни Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 62.

<sup>20</sup> Муаллифлар жамоаси. Буюк юрг алломалари. – Т.: O‘zbekiston, 2018. – Б. 67.

Uning tabobatga oid eng yirik asari “Kutub al-mi'a fi-s-sinoat at-tibbiya” (“Tib san'ati bo'yicha yuz kitob”) deb ataladi va unda bu fanning barcha sohalari mufassal bayon etiladi<sup>21</sup>.

Ibn Sino o'z tarjimayi holida shunday yozadi: “*Tib ilmi qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa muddat ichida bu (fanda juda) ilg'orlab ketdim, endi, hatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan dars oladigan bo'ldilar. Bemorlarni ham ko'rib turardim va (shu yo'sinda) orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar (keng) ochilib ketdiki, uni ta'riflab berish qiyin*”<sup>22</sup>.

Abu Ali hisobni durustgina bilgan, o'zi Buxoro shahrida baqqollik qiladigan Mahmud massoh<sup>23</sup> huzuriga qatnab, bu olimdan hind hisobi va geometriya fanini o'rgana boshlaydi. Undan so'ng Abu Alining otasi unga qonun-qoidalarni bildirmoqchi bo'ladi. O'sha davrda musulmon qonunshunosligi bo'lmish fiqh ilmi mashhur edi. Abu Ali bu sohani yaxshi bilgan kishi – Ismoil Zohid huzuriga qatnab, undan fiqhning turli-tuman shoxobchalarini o'rganadi.

Olim o'z tarjimayi holida shunday hikoya qiladi: “*Keyin Buxoroga Abu Abdulloh an-Notiliy kelib qoldi. Uni faylasuf deb atashar edi. Undan mening ta'lim olishim umidida otam uni uyimizga joylashitirdi. Uning kelishidan oldin ham fiqh bilan shug'ullanib, bu xususda Ismoil Zohidga qatnab yurar edim. Keyin Notiliydan "Isog'uchi"*<sup>24</sup> *kitobini o'rgana boshladim*”.

Shunday qilib, Ibn Sino Notiliydan Porfiriyning asari bo'lmish “Mantiq muqaddimasi” – “Isog'uchi”ni o'rganadi<sup>25</sup>.

Ibn Sinoning ilm o'rganish borasidagi aql-idroki, zakovatini ko'rgan ustodi otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Chindan ham Ibn Sino ilm-ma'rifikat o'rganish yo'liga juda ham kirishgan edi. Hatto kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay mutolaaga sho'ng'ib ketadi, shu tariqa Ibn Sino har bir masalaga kengroq, atroflicha qaray oladigan bo'ldi. Shu sababdan uning bu sermutolaaligiga ustodi ajablanar va unga qattiq ixlos bilan qarar edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ibn Sino o'z tarjimayi holida shunday satrlarni yozadi: “*Notiliy qaysi masalalarni mendan so'rmasin, men u masalani undan ko'ra durustroq tasavvur*

<sup>21</sup> Муаллифлар жамоаси. Буюк юрг алломалари. – Т.: О'zbekiston, 2018. – Б. 68.

<sup>22</sup> Ирисов А. Хаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 64.

<sup>23</sup> Massoh – yer o'chovchi degani.

<sup>24</sup> Isog'uchi – Isagogi – mantiq faniga kirish; bu yerda Porfiriyning shu nomli asari nazarda tutilgan.

<sup>25</sup> Ирисов А. Хаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 4-5.

*qillardim. Nihoyat undan mantiqning yuzaki masalalarini o'qidim, lekin uning nozik tomonlari unga noma'lum edi".*

Ayni paytda Ibn Sino yulduzshunoslikka doir, musiqa va optika kabi sohalarni o'rganishga tushadi. Undan keyin qadimgi yunon olimi Ptolomeyning (arabiynavis adabiyotda bu olimni Batlimus deb atashadi) "Majistiy" – "Almagesta"<sup>26</sup> asarini o'qishga kirishadi.

Bu to'g'rida Ibn Sinoning o'zi shularni yozadi: "... "Majistiy" muqaddimasini o'qib bo'lib, handasa shakllariga yetganidan so'ng, Notiliy menga shunday dedi:

*"Endi uni sen o'zing o'qib hal qilishga kirisha ber, keyin menga tushunganingni aytasan, men senga ularning to'g'ri yonoto 'g'riliqini aytib beraman".*

*U kishining bundan xabari yo'q edi. Men bu kitobni hal qilishga kirishdim. Qanchalab shakllarni men to unga aytgan va tushuntirgan vaqtimgacha u bularni bilmagan bo'lardi. Keyin Notiliy mendan ajralib, Gurganch tomonga jo'nab ketdi".*

Abu Ali ibn Sino tibbiyotdan so'ng fiqh – musulmon qonunshunosligini o'rganganini yozib, "bu vaqtda men o'n olti yoshda edim", deydi. U falsafa va huquq ilmini ham o'rgana boshlaydi, hatto fiqh bo'yicha asarlarni o'qib-o'rganib bo'lgach, bu borada faqihlar bilan tortishib turadigan darajaga erishadi. Bu vaqtda Ibn Sino o'n olti yoshga to'lgan edi.

Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqaradi. O'sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig'i Nuh ibn Mansur (976-997) kasal bo'lib, saroy tabiblari uni davolashda ojiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozasi saroyga ham yetib borgan edi, uni amirni davolashga taklif qiladilar va uning ishtirokida davolangan bemor tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kutubxona o'sha vaqtda butun O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalaridan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdikim, u davrda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa bir kishini topish mushkul edi<sup>27</sup>.

Tinimsiz o'qish va izlahishlar tufayli, Ibn Sino Buxoroning eng bilimdon olimi va mohir tabibi bo'lib yetishdi. Olim o'z asarlaridan

<sup>26</sup> Al-Majistiy – qadimgi yunon astronomi Ptolomeyning (II asr) "Almagesta" asari.

<sup>27</sup> Ирисов А. Ҳаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Е. 65.

birida “yoshim o’n sakkizga borganida bor ilmlarning hammasini egallab bo’lgan edim”, deb yozgan<sup>28</sup>.

Mantiq, tabiiyot, tabobat va boshqa fanlarni chuqur o’zlashtirgach, Ibn Sino o’sha davr falsafasining asosiy qismalaridan biri hisoblangan metafizikani o’rganishga kirishadi. Biroq yosh olim bu fanning daqiq tomonlarini o’zlashtirishga Abu Nasr Forobiy (873-950) tomonidan yozilgan bir falsafiy asarni mutolaa qilgandan keyingina muvaffaq bo’ladi.

Ibn Sino 22 yoshga yetganida (1002-yili) otasi Abdulloh vafot etadi. 1005-yili somoniylar sulolasining so’nggi merosxo’ri Muntasir o’ldirilgach, ibn Sino Buxoroni tark etib, Xorazmga ko’chib ketadi. 1005-1012-yillarda Abu Ali ibn Sino yetti yil davomida Xorazmda yashadi, u yerdagi olimlar bilan hamkorlik qildi. 1012-1014-yillar orasida u Jurjonda, keyin Ray, Hamadonda yashadi. U bu orada “Tib qonunlari” asarini yozib tugatdi. “Yurak dorilar”, “al-Hidoya”, “Hayy ibn Yaqqon”, “al-Qulanj” kabi asarlar dunyoga keldi. Keyin u bu shaharda yigirma ikki jildli “ash-Shifo” kitobini yozdi. 1024-yildan to umrining oxiri – 1037-yilgacha Isfahon amiri dargohida istiqomat qildi. Bu yerda u fors tilida amir Alouddavлага “Donishmand” asarini yozib berdi, “ash-Shifo”ning qisqacha bayoni deb hisoblangan “an-Najot” kitobini, bizgacha yetib kelmagan yigirma jildli “al-Ansof”, o’n jildli “Arab tili” asarini yozdi.

Ibn Sino mamlakat kezib yurganini ushbu satrlarda ham aks ettirgan: “Men ulug’ bo’lganimda, Misrday keng joy ham menga torlik qilib qoldi. Mening qimmatim oshgach, xaridorim ham topilmay qoldi”.

Zamondoshlari Ibn Sinoni “Shayx ur-rais” (“donishmandlar sardori, allomalar boshlig‘i”); “Sharaf ul-mulk” (“o’lka, mamlakatning obro’si, sharafi”); “Hujjat ul-haqq” (“rostlikka dalil”); “Hakim ul-vazir” (“donishmand, tadbirdor vazir”) deb ataganlar<sup>29</sup>.

O’rta Osiyoda yashagan boshqa olimlar singari, ibn Sino ayrim feodallar va mutaassib ruhoniylarning ta’qibidan qochib, sargardonlikda umr kechirishga majbur bo’lgan edi. Vaziyatga qarab unga goh Xorazm yoki Go’rganda (Kaspiy dengizi bo’yida), goh Hamadon yoki Isfahonda va boshqa joylarda turishga to’g’ri kelgan edi. U achchiq mahbuslik hayotini ham totib ko’rgan edi. Ibn Sinoning ko’p asarlari reaksiyon

<sup>28</sup> Отакұжас А. Абу Али ибн Сино (рисола). – Т.: Abu Matbuot-Konsalt, 2011. – Б.7-9.

<sup>29</sup> Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – B. 77-82.

ruhoniylar tomonidan dahriyona (ieretik) asarlar deb e'lon qilingan va keyinchalik kuydirib yuborilgan edi<sup>30</sup>.

Juzjoniyning yozishicha, ibn Sino jismoniy jihatdan ham juda baquvvat kishi bo'lgan. Biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kechalari uxlamasdan uzlusiz ishlash va bir necha bor ta'qib ostiga olinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga ta'sir etmay qolmadi. U qulanj (kolut)<sup>31</sup> kasalligiga chalinib qolgan edi. Kasallik zo'raygach, uni tutqanoq ham tutadigan bo'ladi, oqibatda shu darddan u 428 hijriy yili ramazon oyining bиринчи jumasida (1037-yil iyunida) 57 yoshida Hamadonda vafot etadi. Olimning maqbarasi xuddi shu shaharda joylashgan bo'lib, hozir ham tabarruk qadamjolardan biridir.<sup>32</sup>

Abu Ubaydning aytishicha, Ibn Sino kasal bo'lib yotgan kezlarida xizmatkorlardan biri ichiladigan doriga ko'proq afyun qo'shib bergan, Abu Ali uni bilmay iste'mol qilib yuborgan. "Bu xiyonatning sababi shu ediki", deydi al-Juzjoniy, "xizmatkorlaridan biri Shayxga tegishli anchagina mablag'ini o'g'irlagan edi. Abu Ali tuzalib ketguday bo'lsa u o'z qilmishi oqibatda yaxshilikcha tugamasligini payqab, uning o'limini kutgan edi".

Abu Alining oxirgi yillari bemorlikda o'tganini ko'ramiz. Tabobat qonun-qoidalarini qanchalik yaxshi bilmasin, uning tinim bilmay, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, shart-sharoitga qaramay ta'lif bilan band bo'lishi, bemorlar dardini davolashi, shogirdlarga ta'lim berishi, albatta, o'z ishini qilgan; Abu Alini xoldan toydirgan edi. U qanchalik tadbirkorlik bilan o'zini o'zi davolamasin, natija bermaydi. Bu haqida Shayx ur-Raisning hamrohi Abu Ubayd al-Juzjoniy shularni yozadi: "Shayxning barcha quvvatlari kuchli edi, ayniqsa uning mujomaat ishida shahvoniy quvvati eng zo'r va kuchli edi. U bunga qattiq berilgan bo'lib, bu narsa uning mizojiga ham ta'sir qilgan edi. Shayx esa o'z mizojining kuchiga qattiq ishongan edi. Bu kayfiyat unda Karaj darvozasi oldida Alouddavla bilan Toshfarrosh o'rtasida urush bo'lgan yili qulanj kasali tutgunga qadar davom etdi.

*Shayx tezroq tuzalish harakatiga tushdi, chunki (Alouddavlanning) yengilishi xayfi bo'lib, bunday kasal holida harakat qilishi qiyin edi.*

<sup>30</sup> Кориниев Т. Совет Узбекистони маданийти тарихидан очерклар. – Т.: Фан, 1956. – Б. 23.

<sup>31</sup> Qulanj – yo'g'on ichakda bo'ladigan kasallik.

<sup>32</sup> Aminov M, Hasanov F. Buyuk ajodolarimiz. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – В. 94.

*Shuning uchun u kuniga sakkiz martalab o'ziga o'zi huqna (klizma) qildi. Natijada ba'zi ichaklari yaralanib, shilinib ham ketdi. (Shayx) Alouddavla bilan birga harakat qilib shoshilinch ravishda Izaj tomonga jo 'nashga majbur bo'ldi. Bu yerda qulanj oqibatida Shayxni tutqanoq tutib qoldi<sup>33</sup>. Shunga qaramasdan u o'ziga-o'zi tadbir qilib, ichak shilinishi va qulanj qoldiqlariga qarshi huqna qilishda davom etdi. Bir kun huqna qiladigan narsa ichiga ikki donaq<sup>34</sup> dan karafs (selderey) urug'i aralashтирishni buyurdi, bu bilan ichidagi yellarni haydamoqchi edi. Uni davolayotgan tabiblardan biri karafs urug'idan besh dirham<sup>35</sup> solib yuboribdi. Buni u ataylab qildimi yo yanglishdimi, men bilolmadim, chunki men bu ish ustida bo'lмаган edim. Shu urug'ning o'tkirligidan ichak shilinishi zo'rayib ketdi. Tutqanoqqa qarshi mitridat dorisini<sup>36</sup> ichar edi.*

*Shayxni shu ahvolda Isfahonga olib kelishdi, u esa hamon o'ziga-o'zi tadbir qilar edi. Zaiflikdan shu darajaga yetdiki, hatto o'rnidan turishga ham majoli kelmay qoldi. Lekin u o'zini-o'zi davolashdan to'xtamadi, hatto yurishga qurbi kelib, Alouddavla majlisiga ham qatnasha oladigan bo'lib qoldi. Ammo u shunday holatda bo'lishiga qaramay, o'zini saqlamadi, mujomaat ishlarini ko'paytiraverdi. U darddan butunlay tuzalib ketmadi, dardi ba'zan qaytalar va ba'zan ahvoli yengillashar edi<sup>37</sup>.*

*Shu vaqt Alouddavla Hamadon tomonga yurish boshladi, Shayx u bilan birga safarga chiqdi. Yo'lda, hali Hamadonga yetib bormaslaridanoq Shayxning dardi yana qaytaladi. Endi u butunlay kuchdan qolganini va kasallikni daf qilolmasligini anglatdi, natijada o'zini-o'zi davolashdan to'xtadi. Shunda Shayx: "Tanamni idora qilayotgan mudir, uni tuzatishdan ojizdir, endi bundan buyon muolaja foyda bermaydi", dedi.*

*Shayx shu holatda bir necha kunni kechirdi, keyin u Tangri dargohiga ko'chdi. U ellik sakkiz yil umr ko'rди, vafot etgan yili to'rt yuz yigirma sakkizinchи edi, tug'ilgan yili esa uch yuz yetmishinchи edi, uning qabri Hamadonda, uning qibla tomonidagi devor tagida*<sup>38</sup>.

Rus antropolog M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykal-portretini

<sup>33</sup> Qulanj oqibatida ba'zan tutqanoq tutishi haqida "Qonun"da ham aytilgan. III kitob, ikkinchi jild, 202-bet.

<sup>34</sup> Donaq – 0,5 gr.

<sup>35</sup> Dirham – 2,9 gr.

<sup>36</sup> Mitridat – tarkibiga afyun va boshqa ko'p narsalar solib tayyorlanadigan murakkab dori.

<sup>37</sup> Ирисов А. Ҳаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 77.

<sup>38</sup> Ирисов А. Ҳаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 78.

yaratgan. Andijon tibbiyot instituti xodimlari (Yu. O. Otabekov, Sh. H. Hamidullin, E. S. Sokolova) Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykal-byustda tasvirladilar (1965). Abu Ali ibn Sino haqida “O’zbekfilm” studiyasi ijodkorlari “Dahoning yoshligi” tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar. O’zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliv va o’rta maxsus o’quv yurtlariga, sanatoriya, shifoxona, kutubxona, ko’cha, turar joy mavzeleriga Ibn Sino nomi berilgan.

Ibn Sino ko’p qirrali ijodiy faoliyati bilan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shdi. Shu bois bu ulug’ siymoni jahon xalqlari doimo hurmat bilan tilga oladilar. UNESCO tavsiyasiga binoan 1980-yilda tulug’ olim Abu Ali ibn Sino tug'ilganiga 1000 yil to’lgani sanasini jahon miqyosida, jumladan u tug'ilib voyaga yetgan ko’hna va navqiron Buxoro shahrida keng nishonlandi<sup>39</sup>.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jahon fanlari tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o’z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug’ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Bugungi kunda Buxoro shahri va Afshona qishlog’ida Ibn Sinoga haykal o’rnatalgan. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochilgan. Olimga ehtirom sifatida dunyoning turli mamlakatlarda, jumladan, Belgiyaning Kortreyk shahrida (2000) va Avstriya poytaxti Venada haykal o’rnatalgan. O’zbekistonda Ibn Sino fondi tuzilgan (1999-yil). Fond alloma merosini o’rganish va ommalashtirish borasida ko’p ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

<sup>39</sup> Хомидий Х. Кўхна шарқ даргалари. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 72.

## II BOB. ABU ALI IBN SINO VA UNING ILMIY HAMKORLIK ALOQALARI

### 2.1 Ilm-fan va ma'naviyat maskani

**(Ma'mun akademiyasi allomalari faoliyati)**

Jahon fani va madaniyatining yaratilishi, taraqqiyotida barcha xalqlarning hissaliari bor. O'rta Osiyo ham bashariyat sivilizatsiyasi rivojiga ulkan ulush qo'shgan. O'rta asrlarda ushbu hududdan ko'plab allomalarning yetishib chiqqanligi hamda bir necha ilmiy maktab, markaz va akademiyalarning faoliyat yuritgani mamlakatimizning bashariyat fani rivojidagi faol ishtirokidan dalolat beradi. XI asrda asos solingen Xorazm Ma'mun akademiyasi ana shunday markazlardan biri edi.

X asrning oxiri – XI asrning boshlarida Xorazmdagi siyosiy osoyishtalik, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy turmushidagi yuksalish hamda xorazmshoh ma'muniylarning ilm ahliga bo'lgan hurmat-e'tibor, mehr-muruvvati o'sha davrning eng mashhur va ko'zga ko'ringan olimlarini Gurganchda to'planishiga sabab bo'ldi<sup>40</sup>.

Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatini oladigan bo'lsak, bu mo'tabar ilmiy maskanda Sharq va G'arb o'lklaridan kelgan, turli millat va denga mansub bo'lgan olimlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, uning negizini Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino, Mahmud Xo'jandi, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi mana shu bizning mintaqamizda tug'ilib, kamol topgan yetuk allomalar tashkil etgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi<sup>41</sup>.

992-yili Gurganchda hokimiyatga yangi amir – Abu Ali Ma'mun keladi. U va uning o'g'li Abul Hasan Ali bin Ma'mun (999-1009)larning saroyida ko'plab olimlar faoliyat olib boradi. Ali bin Ma'munning vaftodidan so'ng Xorazm taxtiga o'tirgan Abu-l-Abbos Ma'mun bin Ma'mun xorazmshohlar saroyidagi ilmiy an'analarni davom ettirib, zamonasining olimlariga e'tibor bilan qaraydi va ilmiy tadqiqotlarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Saroy vaziri Abu-l-Husayn Ahmad bin Muhammad as-Sahliyning ilmli, adabiyot, she'riyat va umuman, ilm-u fanni qadrlovchi shoortabiat inson ekanligi xorazmshohlar saroyidagi ilmiy to'garakning yanada kengayishi va samarali faoliyatiga

<sup>40</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Маъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 5.

<sup>41</sup> Каримов И. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. – Т.: Ma'naviyat, 2008. – Б. 100.

sabab bo'ldi. Natijada xorazmshohlar saroyida XX asr olimlari Ma'mun akademiyasi deb atagan ilmiy muassasa vujudga keldi.

Manbalarda Ma'mun ibn Ma'mun saroyida olimlarning katta guruhi to'planganligi va xorazmshoh ularga homiylik qilganligi e'tirof etilsa-da, bu ilm maskanini qachon tashkil topgani haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Lekin ilmiy adabiyotlarda Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinoning Gurganchga kelgan 1004-yil akademiyaning tashkil topgan yili deb qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda Beruniy va Ibn Sinolarga qadar ham xorazmshohlar saroyida ilmiy muhit va olimlarning bo'lganini nazarga olsak, Xorazm Ma'mun akademiyasini ko'rsatilgan sanadan ilgariroq ham mavjud ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Ma'mun akademiyasi qisqa bir muddat, ya'ni 1017-yilgacha faoliyat yuritgan bo'lsa-da, bu yerda astronomiya, matematika, tabobat, kimyo, geografiya, mineralogiya kabi tabiiy fanlar bilan bir qatorda tarix, falsafa, adabiyot, til, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar ham rivoj topdi<sup>42</sup>.

Ma'mun ibn Ma'mun hukmronligida (999-1017) Xorazm iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan tez rivojlanadi. Arab istilosidan keyin deyarli o'chib qolgan ilmiy hayot birdan faollashdi. Urganchda "Donishmandlar uyi" tashkil etildi, u tarixga Ma'mun akademiyasi nomi bilan kirdi. Bu yerda xorazmshoh g'amxo'rligida nafaqat Xorazmning, shuningdek butun Sharqning iqtidorli olimlari faoliyat ko'rsatdilar.

X asr oxiri - XI asr boshida Xorazm fanini qator buyuk olimlar guruhi bunyod etdilar. Ular safida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tabib Abulxayr al-Xommar, tarixchi Abul Fozil Bayhaqiy, yirik matematik Abu Nasr ibn Iroq, shoир va adabiyotshunos Abu Mansur al-Saolibiy, tarixchi Abu Sahl Masihiy va boshqalar bor edi. Ular nazariy va ilmiy amaliy muammolarning ko'p turlari bo'yicha tadqiqot olib bordilar, nazariyot va amaliyot sohasida jahon ilmiy tafakkurini boyituvchi buyuk kashfiyotlar qildilar.

Urganchda 1009-yilda Ma'mun II tomonidan tashkil qilingan "Majlisi ulamo" (Donolar uyi) o'ziga xos akademiya bo'lib, u Xorazmda fan va madaniyatning gurkirab o'sishi nishonasi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Akademiyani Abu Rayhon Beruniy boshqaradi. Bu yerda ishlash uchun xorazmlik olimlardan tashqari O'rta Osiyoning boshqa joylaridan

<sup>42</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Маъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. –Б. 5-6.

ham ko'plab olimlar taklif qilinadilar. Bular orasida mashhur Abu Ali ibn Sino ham bor edi<sup>43</sup>.

Akademiyada matematika bo'yicha olib borilgan ishlar Abu Mansur ibn Iroq, Beruniy va Abul Xayr Hammorlarning ismlari bilan bog'liq. Beruniyning ustozi ibn Iroq matematika va astronomiyaga oid 30 ga yaqin asarlar yozdi. Beruniy qalamiga mansub 150 ga yaqin asarlar orasida astronomiya va matematikaga oidlari salmoqli o'rinni egallaydi. Teng yonli uchburchaklarga oid bir teorema, uni isbotlagan muallifi, ya'ni Abul-Xayr Hammorning nomi "Hammoriy teoremasi" ("ash-Shakl al-Hammoriy") nomi bilan mashhur bo'lgani ma'lum<sup>44</sup>.

Ma'mun akademiyasi faoliyatini boshlanishi turli manbalarda turlicha, 1004, 1009 yoki 1010-yillar deb talqin etilgan. Lekin o'sha 1004-yilni shartli ravishda Xorazmdagi Ma'muniylar ilmiy to'garagining yoki hozirgi ibora bilan aytganda Ma'mun akademiyasining to'la shakllangan yili deyish mumkin. Ma'mun akademiyasida to'plangan olimlarning ro'yxati bizgacha yetib kelmagan va ularning tarkibi haqida biz faqat taxminlar qilishimiz mumkin. Lekin, Abu Mansur as-Saolibiyning guvohligicha, Gurganjda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan.

Xorazmshoh Abul-Abbos Ma'mun saroyidagi ilmiy to'garakning akademiya deyilishi masalasiga kelsak, bunga o'rta asr mualliflaridan Abul-Hasan Bayhaqiy (1105-1169) va Nizomiy Aruziy Samarqandiy (1090-1180) guvohlik bergenlar. Xususan, Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining "Chahor maqola" nomli asarida bu haqda quyidagicha xabar beradi: "*Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'munning bir vaziri bor edi, oti Abu Husayn Ahmad Muhammad as-Suhayliy edi, falsafiy tafsakkur, oliyjanob qalbga ega va ma'rifatparvar edi. Xorazmshohning o'zi ham falsafaga mayli ko'p va zukkolarga muruvvatli edi. Ana shular tusayli saroyda ko'plab faylasuflar va ulamolar to'plandi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abu-l-Xayr Hammor, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr ibn Iroq... Ularning hammasi shu xizmatda hayotiy ehtiyojlarning hammasi bilan to'liq ta'minlangan edi, o'zaro do'st edilar, suhbatlar va yozishmalar bilan orom olardilar*". Bayhaqiy ham shu so'zlarni deyarli qaytaradi.

<sup>43</sup> Матиёнев М. ва бошқалар. Хоразм тарихи. I жилд. – Урганч: "Хоразм" таҳририят – нашр бўлими, 1996. – Б. 135.

<sup>44</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Маъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 43.

Bu ikki tarixchi “akademiya” iborasini ishlatmagan bo‘lsalar ham xorazmshoh saroyida olimlar guruhining to‘planganligini tan olganliklari – katta ilmiy ahamiyatga egadir<sup>45</sup>.

XX asrda bir qator olimlar xorazmshoh Ma’mun saroyidagi ilmiy to‘garakni “akademiya” deb atadilar. Ular orasida K. Brokkelman va S. P. Tolstovlarni eslatish mumkin. Yu. N. Zavadovskiy esa o‘zining “Abu Ali ibn Sina” degan kitobining uchinchi bobini “Переезд в Хорезм и участие в “Академии” Абу-л-Аббаса Али ибн Маъмуна” (“Xorazmga ko‘chish va Abul-l-Abbos Ali ibn Ma’munning akademiyasida ishtirok etish”) deb atadi. Demak, Ma’mun akademiyasi bo‘lganligi haqida shubha bo‘lishi mumkin emas.

Akademiyada, xususan, astronomiya sohasida olib borilgan tajribalar natijasida munajjim olimlar tomonidan tuzilgan astronomik jadvallarga tuzatishlar kiritishdi, astronomik asboblar yashash, yulduzlar koordinatalarini hisoblash bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Beruniy 1004-yilning iyun oyida Oy tutilishini kuzatdi.

Alkemyoni ilmiy kimyoga yaqinlashtirishda Beruniy va Ibn Sinolarning munosib o‘rni bor. Beruniyning moddalar solishtirma og‘irliklari bilan ularning xossalari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi haqidagi fikr va xulosalari mujassamlangan “Solishtirma og‘irliklar” nomli risola ham Gurganchda yozilgan. Ibn Sino moddalar transmutatsiyasiga bag‘ishlangan kimyoviy tajribalarining natijalarini “Iksir haqida risola” (“Risolat al-iksir”)da bayon etadi. Ma’lumki, bu risola 1005-1010-yillar davomida Xorazmda ta’lif etiladi<sup>46</sup>.

Xorazmshohlar saroyida tabobat bilan shug‘ullangan olimlar jumlasiga Abu Sahl al-Masihiy, Abu-l-Xayr Hammor, Ibn Sino hamda Beruniylarni kiritish mumkin. Matematika sohasida uning nomi bilan atalgan “Hammoriy teoremasi”ning muallifi bo‘lmish Abu-l-Xayr Hammoring tabobat sohasida “Ikkinci Gippokrat” degan nomga sazovor bo‘lishi bu olimning yuksak iqtidoridan dalolat beradi. Abul-Xayr Hammor ko‘proq tibning nazariy masalasi bilan shug‘ullangan bo‘lib, o‘z asarlarida anatomiya, qariyalar parhezi, tabibrarning sinash usullari, oziq moddalar va epilepsiya masalalarini bayon qilgan. Abu Sahl al-Masihiy Hammordan farqli o‘laroq, amaliy tabobat va tibbiy ta’lim berish bilan shug‘ullangan.

<sup>45</sup> O’sha asar. – Б. 31-32.

<sup>46</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Мъъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 33.

Ibn Sino Xorazmda faqat besh yil yashagan bo'lsa-da (1005-1010), bu yerda sog'liqni saqlash masalalariga oid "Zararlarni yo'qotish" ("Daf al-mador") nomli muhim asarini yozishga muvaffaq bo'ldi.

Xorazm Ma'mun akademiyasida geografiya sohasida qilingan ishlar, asosan, Beruniy ijodi bilan belgilanadi. Ma'lumki, geografik bilimlar Beruniy ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. U o'n olti yoshidayoq joylarning geografik kengligini aniqlash bilan shug'ullangan va Kat shahrining geografik kengligini o'lchagan. Beruniy 994-yili Amudaryoning g'arbiy sohili Jurjoniya bilan Kat oralig'idagi Bo'shkanz qishlog'ida ekliptika tekisligining ekvatorga nisbatan og'ish kattaligini juda aniq o'lchashga muvaffaq bo'ldi. 995-yili Kat shahrida yashagan olim u yerda Yer sharini globusda aks ettirish masalalari bilan shug'ullangan. U yasagan globus Sharqdagi birinchi va rel'yefli globusligi bilan ahamiyat kasb etadi. Beruniyning Gurganchda olib borgan ilmiy faoliyatida geografiyaning bir qancha sohalari – tabiiy geografiya, gidrologiya, mineralogiya kabilarga oid tadqiqotlar o'rin olgan<sup>47</sup>.

Xorazm Ma'mun akademiyasida aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy fanlar ham keng rivoj topgan. Falsafa ana shunday ilm sohalaridan biridir. Akademiyada rivojlangan falsafiy g'oyalar zamirida Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino o'rtasida olib borilgan yozishmalar muhim o'rin tutgan. Ushbu yozishmani Aristotel kitoblari yuzasidan Sharqning ikki buyuk allomasi savol-javoblari, ularning falsafiy dunyoqarashlari tashkil etadi. Beruniy bilan Ibn Sino yozishmalar o'zları yashab turgan olamdan boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risida ikki olim o'rtasida jiddiy fikr-mulohaza yuritilganidan guvohlik beradi. G'arb mutafakkiri Aristotelning dunyo cheklanganligi haqidagi falsafasi hukmron davrda Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi taxminlari allomaning falsafiy dunyoqarashi naqadar keng bo'lganini isbotlab turibdi. Umuman, mazkur manba ikki buyuk ajdodimizning Ma'mun akademiyasi davridagi falsafiy faoliyatları va qiziqishlari haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitish imkonini beradi.

Akademiyada tarix fani ham rivoj topgan. Beruniy Xorazmda tarix sohasida mayjud bo'lgan ilmiy an'analarni davom ettirib, o'zining "Xorazmnинг mashhur kishiları" yoki "Xorazm tarixi" nomli kitobini yozgan. Asar to'liq holda saqlanmagan. Uning faqat yirik bir parchasi Abu-l-Fazl Bayhaqiyning Sulton Mas'ud G'aznaviyga bag'ishlangan "Tarixi Mas'udiyy" asari orqali yetib kelgan. Bundan tashqari muallifning

<sup>47</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Маъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 102-118.

“Yodgorliklar”, “at-Tafhim” va “Hindiston” asarlariida ham muhim tarixiy ma'lumotlarni uchratish mumkin<sup>48</sup>.

X-XI asrlarda yashagan as-Saolibiyning “Ajoyib ma'lumotlar” (“Latoif al-maorif”), XII asrda yashagan as-Sam’oniyning “Nasablar haqida kitob” (“Kitob al-Ansob”), Yoqt al-Hamaviyning “Adiblar qomusi” (“Mu’jam al-udabo”) va boshqa bir qator manbalar orqali yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda, Ma’mun saroyida badiiy ijod va adabiyotshunoslikka ham alohida e’tibor berilgan. Shu bois o’sha davrning ko’pgina mashhur adiblari xorazmshohlar saroyida to’plangan. Ular orasida Ahmad ibn Muhammad ibn Saxriy, Abdulloh ibn Hamid, Abu Said ibn Shabib, Abu-l-Hasan ibn Ma’mun, Abu Abdulloh at-Tohir, Ibrohim Raqqoniy kabi shoirlar she’riy devonlar, qasida va madhiyalar yozganlar. Badiiy ijod shaydosi vazir as-Sahliy o’zi she’r yozishdan tashqari saroydagagi adabiy mushoiralarni ham har taraflama qo’llab-quvvatlar edi.

Bu davrda Xorazmda bir qancha tilshunoslar ham ijod etganlar. Ular o’sha davrning ilmiy tili bo’lgan arab tili grammatikasini bir tizimga solib, lug‘at va til o’rganish bo'yicha asarlar yaratganlar<sup>49</sup>.

Shunday qilib, Xorazm Ma’mun akademiyasi ilm-fan va ma’naviyat maskani sifatida o’z davrida ko’plab olimlarni jamlagan ilmiy tashkilot bo’lganligini ko’rishimiz mumkin.

## 2.2. Ikki buyuk allomaning mubohasasi va musobaqasi

G’arbda Avitsenna nomi bilan mashhur O’rta Osiyoning buyuk olimi Abu Ali ibn Sino (980-1037) Beruniyning zamondoshi edi. O’z zamonasining g’oyat zo’r qomusiy olimi bo’lgan Ibn Sino o’tmishdoshlari va zamondoshlari yaratgan narsalarni tanqidiy nuqtayi nazardan sintez qilib, o’zi yashagan davrdagi fan va nazariy tafakkurning taraqqiy qilishi uchun juda ko’p hissa qo’shgan. Jahon Tinchlik Kengashi 1951-yildagi murojaatida xalqlarni Ibn Sino tug’ilganiga ming yil to’lish kunini bayram qilishga chaqirib, u “o’z ijodi va asarlarining ahamiyati bilan butun insoniyatga mansubdir” degan edi<sup>50</sup>.

Beruniy (973-1048) Xorazmda ilm-fan bilan mashg’ul bo’lib turli bilim sohalarini tadqiq etayotgan bir paytda Buxoroda o’n yetti yashar bir tib olimining shuhrati yoyila boshlagan edi. Tezda bu yosh tabib va faylasufning dovrug‘i Xorazmgacha yetib keldi. Bu tabibning

<sup>48</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Мъъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. –Б. 161.

<sup>49</sup> Абдухалимов Б. Хоразм Мъъмун Академияси. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 235.

<sup>50</sup> Кориниев Т. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т.: Фан, 1956. – Б. 18-23.

nomi *Abu Ali ibn Sino* edi. Beruniy Ibn Sinoning ilmiy faoliyatini diqqat bilan kuzatib borar va Ibn Sinoning fan va tajribada o‘ziga munosib suhabtdosh bo‘lishiga ishonch hosil qildi. Shundan keyin u Buxoroga Ibn Sinoga bir qancha ilmiy masalalar bo‘yicha savollar yozib yubordi. Abu Ali ibn Sino bu savollarga javoblar yozib Beruniyga jo‘natib turdi. Bu yozishmalar ikki buyuk allomaning ham ilmiy mubohasasi<sup>51</sup>, ham musobaqasi edi.

997-998-yillar oralig‘ida Beruniy bilan Ibn Sino o‘rtasida o‘n sakkizta yozishma bo‘lib o‘tgan. Ularning hammasi Aristotelning asari ustida bahs bo‘lib, „Osmon haqida” (o‘n savol) va „Fizika” (sakkiz savol) kitoblari yuzasidan edi. Ibn Sinoning Beruniyga qaytargan javoblarini faqih (qonunshunos) Mas‘udiy ko‘chirib yozar va o‘zining Beruniyga yozgan xatlariga qo‘sib Xorazmga jo‘natar edi. Beruniy va Ibn Sino yozishmalarini o‘rta asr Sharqining bu ikki buyuk olim va mutafakkirlari o‘rtasida ilmiy hamkorlikdan yorqin bir namunadir<sup>52</sup>.

Abu Rayhon Beruniy minginchi yillarda yozib tugatgan va keng kitobxonlar ommasiga ma’lum bo‘lgan “*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*” asarida Ibn Sino bilan bo‘lgan yozishmalarini keltirgan. Beruniy bunda dunyolarning ko‘pligi, bo‘shliq masalasi, og‘irlik va yengillik, jismlarning atomdan tashkil topganligi, ularning issiqqlikdan kengayishi, nurning akslanishi va sinishi kabi mavzularni tilga oladi<sup>53</sup>. Ana shu masalalarga to‘xtab Beruniy yozadi:

“*Bu masalani shu kitobdan loyiqroq boshqa joyda, ayniqsa, men bilan fozil yigit Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino orasida shu bob ustida bo‘lgan muzokaralarda bayon etilgan*”<sup>54</sup>, deb bu masalaga qiziqqanlarni o‘sha yozishmalarini mutolaa qilishga da‘vat etadi va yuqoridaq satrlarni keltiradi. Bundan ko‘rinishicha, Abu Rayhon Beruniy oldin ham Ibn Sino bilan tanish bo‘lgan.

Ibn Sino va Beruniy o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik shundan dalolat beradiki, ular har bir ilmiy masalalarda bir-birining fikr-mulohazalarini sinchiklab o‘rganganlar va shularning asosida o‘zlarining ilmiy asarlarini yaratganlar. Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sinoga yo‘llagan har bir savoliga yetarlicha javob qaytarilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ikki olim o‘rtasidagi mulohazalardan, Beruniy ko‘pgina masalalarda o‘zidan biroz kichikroq bo‘lgan Ibn Sinoning fikrlarini bilishga intilganini ko‘rish

<sup>51</sup> Mubohasa – arabcha so‘z bo‘lib, suhabat, bahs, munozara degan ma’nolarni anglatadi.

<sup>52</sup> Каюмов А. Абу Райхон Беруний. Абу Али ибн Сино. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б. 12-13.

<sup>53</sup> Каримов У. Абу Райхон Беруний (ҳаётги ва ижоди). Карант: “Беруний” (тўплам), 1973. – Б. 22.

<sup>54</sup> Абу Райхон Беруний. Қадимги ҳалклардан колган ёлгорниклар. Сайланма асарлар, I том, арабчадан А. Расулов таржимаси. Масъул мухаррир И. Абдуллаев, 1968. – Б. 301.

mumkin. Bu ikki allomaning ilmiy hamkorligi nafaqat maktublarda, balki Ibn Sinoning Gurganchga borganidan keyin yangi sahifa ochganini ko'rish mumkin. Ya'ni Ibn Sino bilan Beruniy oldinlari xat yozishmalari orqali bir-birining ilmiy salohiyatlaridan boxabar bo'lgan bo'lsalar, endilikda yuzma-yuz ko'rishib munozara qilish imkonini berdi.

Ibn Sino o'zining falsafaga oid asarlarida mumtoz yunon falsafasini turli g'oya va qarashlar asosida rivojlantirgan. Uning Beruniy bilan yozishmalari "Asr yozishmasi" nomini olgan. Unda Ibn Sino Beruniy bilan fizikaning ayrim masalalari bo'yicha Aristotel (mil.avv 384-322) ta'limoti xususida bahs yuritadi. Yozishmalarning mazmuni bu olimlarning tabiatshunoslikning ko'pgina dolzarb masalalari bo'yicha ilg'or g'oyalarga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'rta asrlar Sharq olimlari, shu jumladan, faylasuflarning Aristotel ta'limotiga bo'lgan munosabatini Ibn Sino va Beruniy o'rtasidagi mashhur yozishmalar misolida ko'rish mumkin. Unda Ibn Sino aristotelizm nuqtayi nazaridan yondashib, Aristotel qarashlariga yondashish tarafdori sifatida namoyon bo'ladi. Beruniy siyosida esa aristotelizm ilm-fandagi, shu jumladan, falsafadagi ba'zi yangiliklar nuqtayi nazaridan yondashilgan tanqidiy qarash tarafdorini ko'rish mumkin. Ularning Aristotel falsafasini talqin etishidagi umumiy jihat shundaki, olimlarning har biri o'zicha Aristotel falsafasidagi zaif jihatlarni ko'rsatib o'tadi. Agarda Beruniy cheksiz bo'linish nazariyasи va atomistik ta'limotlardagi zaif tomonlarni bartaraf etish yo'llarini izlasa, Ibn Sino Aristotelning asl qarashlarini qayta tiklash va ularni o'sha davr ilm-fani holatiga yaqinlashtirishga katta ahamiyat beradi. Ammo u ham bir qator masalalarda Beruniyning tanqidiy yondashuvini, xususan, fazoviy jismlarning ellipsoid shaklga ega bo'lishi mumkinligi va ular trayektoriyasi haqidagi qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bu fikrlar keyinchalik jahon ilm-fanining buyuk namoyandası Kepler (1571-1630)ning ishlarida o'z ilmiy isbotini topdi. Agarda Beruniy unsurlar o'rtasidagi o'zaro tortishish kuchi haqidagi g'oyani ilgari surgan bo'lsa, bir qator hozirgi zamon olimlarining fikriga ko'ra, Ibn Sino asarlarida keyinchalik Galiley (1564-1642) va Nyuton (1642-1727)lar tomonidan asoslab berilganini ko'rish mumkin. Ya'ni borliq va olamning tuzilishi muammolari bo'yicha ikkala olim ham jahon ilm-fani taraqqiyotidagi eng muhim tendensiyalarni oldindan belgilay olishdi<sup>55</sup>.

<sup>55</sup> Ўрга асрлар Шарқининг машхур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. III. Салихов на бошк. Т.: О'zbekiston, 2016. – Б. 123.

Aristotelning “Osmon va olam” asariga sharh yozgan mualliflar qatoriga Ibn Sino ham kiradi. Ibn Sinoning bu masalaga doir asari bo‘lishi bilan birga uning bu masalaga risola tariqasida yozilgan javoblarida ham bu kitobdagi masalalar o‘z ifodasini topgan. Ushbu asar Abu Rayhon Beruniy savollariga Ibn Sino javoblari nomi bilan mashhur.

Ibn Sino esa uni risola deb ataydi. Ibn Sino bu haqda shunday yozadi: “*Bu Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning Xorazmdan menga yuborgan masalalarining javobi haqida yozgan risolamadir*”<sup>56</sup>. Savollar mohiyatiga to‘xtalib, asar muqaddimasida Ibn Sino shunday yozadi: “*Bir necha masalalar so‘rabsan, bu masalalarning ba‘zisi Aristotelga qarshi qaratilgan. U kishi “Osmon va olam” ismli asarida o’sha masalalar haqida so‘zlagan edi... Savollaringga javob beraman, masalalarni qisqa bayon qilishga yo‘l tutaman. Chunki ko‘ndalang kelib qolgan ba’zi mashg‘ulotlar har bir masalaning javobida keragicha so‘zni kengaytirishga imkoniyat bermaydi*” (4-bet).

Xulosa o‘rnida shumi aytish joizki, Ibn Sinoning jahon ilm-fanidagi ilmiy merosini o‘rganar ekanmiz, uning asarlarini o‘rganishda va ilm-fan yutuqlarini tatbiq qilishda al-Beruniy bilan hamkorligi, ikki alloma o‘rtasida ilmiy yaqinlik bo‘lganligini ko‘rib o‘tamiz. Bundan ko‘rinadiki, Beruniy asarlari orqali Ibn Sinoning ilmiy qarashlarini ham bilib olamiz. Bu ikki alloma o‘rtasidagi ilmiy xat almashunuvlari asrlar osha ilm ixlosmandlari uchun haqiqat ekanligi va har bir masalada ularning fikr-mulohazalarini bilib olishimizda katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bu ikki allomaning bir-birlari bilan fizika va astronomiya fanlariga oid masalalar yuzasidan qarashlari muhimdir. Shunday qilib, bu ikki allomaning ilmiy merosi Sharq Uyg‘onish davri olimlari yutuqlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u keyinchalik G‘arbiy Yevropa Uyg‘onish davrining manbalaridan biriga aylanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bu ikki allomaning nomini abadiylashtirish yo‘lida keng ishlar olib borilmoqda. Ularning asarlarini yangidan turli tillarda nashr etilmoqda. Beruniy nomi Qoraqalpog‘istonagi tumanga va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga berilgan. Bundan tashqari, fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlar uchun O‘zbekiston Respublikasining Beruniy

<sup>56</sup> Беруний билан ибн Синонинг савол-жавоблари. – Т.: Фан, 1973. – Б. 4.

nomidagi davlat mukofoti ta'sis etilgan. Beruniy bilan birgalikda Ibn Sino nomi ham abadiylashtirilgan. Allomaga atab tropik o'simligiga „Avicennia”, mineral moddaga „Avitsennita”, ko'plab ko'chalar, o'quv va davolash maskanlariga Ibn Sino nomi berilgan. Ko'pgina mamlakatlarda unga yodgorlik o'rnatilgan. Shunday qilib bu ikki allomaning ilmiy hamkorlik tarixi asrlar osha kelajak avlodga meros bo'lib qolmoqda. Allomalarning ilmiy hamkorliklarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

### **III BOB. ALLOMA ILMIY MEROSINING AHAMIYATI**

#### **3.1 Ibn Sino va uning ilmiy asarlari ahamiyati**

Abu Ali ibn Sino juda mehnatsevar va g‘ayratli olim bo‘lgan. Garchi, ilmiy faoliyat uchun sharoit bo‘lmasa-da, zahmatkash olim juda ko‘p asar yaratgan. Olimlarimizning aniqlashicha, Ibn Sino 300 dan ortiq asar yozgan. Bu asarlarning ko‘pi olim hayot vaqtidayoq yo‘qolgan bo‘lib, saqlanib qolganlari ham to‘laligicha bosilib chiqmagan. Ulug‘ tabibning juda ko‘p asarlari Sharq va G‘arb mamlakatlari kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. Ibn Sino asarlari ham hajm jihatidan turlichadir: ularning ba’zilari qomuslar singari yirik hajmli, bir yarim ming varaqli qo‘lyozma bo‘lsa, ba’zilari 15-20 sahifali kitobchalaridir. U falsafa, matematika, astronomiya, kimyo, fizika, tabobat, dorichilik, geografiya, musiqa va boshqa fanlarga oid asarlar yozgan. Mutafakkirning mantiq, psixologiya, davlatni idora qilish usullari, harbiy fan, nikoh, oilaviy masalalarga oid asarları, adabiyot bobidagi xizmatlari uning buyuk zakovatidan, yuksak aql-idrokidan dalolat beradi<sup>57</sup>.

2018-yilda Respublikamizdagi Ibn Sino jamoat fondi raisi Nozimxon Mahmudov Turkiyada bo‘lib o‘tgan III-Jahon Islom hamjamaliylari kongressida ishtirok etdi. N.Mahmudovning ta’kidlashicha, Turkiyadagi o‘n sakkizta yirik kutubxonada Ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari hamda nusxalari saqlanmoqda. Shuningdek, Misrdagi mashhur Aleksandriya kutubxonasida, Erondagi oltita kutubxonada Ibn Sino asarlarining noyob qo‘lyozmalari mavjud. Ibn Sino jamoat fondining ilmiy guruhi alloma qo‘lyozmalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha ish olib bormoqda<sup>58</sup>.

Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o‘z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug‘ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo‘lsa ham, zamonlar o‘tishi bilan ularning ko‘pi yo‘qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan.

Shu 242 dan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tabiiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematikaga, 1 tasi

<sup>57</sup> Ирисов А, Носиров А, Низомиддинов И. Ўрта Осиёлик кирқ олим. – Т.: Фан, 1961. – Б. 33.

<sup>58</sup> Рахим А. Бухоролик улуг аллома:// Абу Али ибн Сино (Авиценна) и современная медицина. Сборник тезисов и статей X Международных Авиценновских чтений научно-практической конференции. – Т.: 2019. – Б. 144.

musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan<sup>59</sup>.

Alloma asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilarini fors tilida yozgan<sup>60</sup>.

Abu Ali ibn Sino asarlari ro'yxatini dastlab uning shogirdi Abu Ubayd al-Juzjoni yozgan edi. U kishi Ibn Sino asarlarining yozilish sabablarini yaxshi biladigan kishi edi. Zotan u yigirma besh yil davomida to alloma o'lim to'shangiga yotgunga qadar u bilan hamroh bo'ldi, hatto asarlar ta'lif qilishga allomani undar, ba'zilarini to yozilmaguniga qadar tinib-tinchimas edi. Nihoyat, Abu Ubaydning qattiq turib olganligi tufayli ustod Abu Ali bir qancha asarlar ta'lif qilganligi uning esdaliklaridan ma'lum<sup>61</sup>.

Ibn Sinoning ko'proq falsafa va tibbiyotga oid kitoblari jahoning ko'pgina tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr qilib kelinmoqda, lekin shu bilan bir vaqtida, boshqa ko'p asarlari hali qo'lyozma holida o'z tadqiqotchilarini kutyapti.

Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin. Olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimming qiziqish va e'tibori ko'proq falsafa va tibga qaratilganini ko'ramiz. Garchi, uni "Avitsenna" sifatida G'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, "Tib qonunlari" bo'lsa-da, "Shayx ar-rais" nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir<sup>62</sup>.

Ibn Sinoning ilmiy dunyoqarashi quyidagi asarlarida yorqin namoyon bo'lgan: "**al-Qonun fi-t-tib**" ("Tib qonunlari") – tibbiy ensiklopediya, unda o'z davrining tibbiyotga oid barcha nazariy va amaliy masalalari yagona tizimga solingan. Bu asar 5 mustaqil kitobdan iborat; "**Kitob ash-shifo**" ("Shifo kitobi") – falsafiy ensiklopediya. U o'zida 4 qismni jamlagan: mantiq, tabiiy fanlar, riyoziyot fanlari va metafizika (ilohiyot); "**Kitob an-najot**" ("Najot kitobi") – "Shifo kitobi"ning qisqartirilgan nusxasi; "**Donishnama**" ("Bilim kitobi") – fors tilida yaratilgan falsafiy asar, unda falsafa hamda mantiqning ko'pgina nazariy masalalari o'rganilgan; "**Risola al-iksir**" ("Iksir haqida risola") – kimyoga, metallar

<sup>59</sup> Абу Али ибн Сино. Тиббий ўтилар. Тузувчилар: Каримов У., Каримова С. –Т.: Мехнат, 1991. – Б.8.

<sup>60</sup> Хомидий Х. Кўхна шарқ даргандари. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 74.

<sup>61</sup> Ирисов А. Ҳаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 81-82.

<sup>62</sup> Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajodolarimiz. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – Б. 82.

transmutatsiyasining amaliy usullariga bag‘ishlangan; “al-Adviyat al-qalbiya” (“Yurak dorilari”) – tibbiy-falsafiy asar, yurak xastaliklarini davolashga bag‘ishlangan, shuningdek, muallifning ruh haqidagi mulohazalari ham o‘rin olgan; “Salomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon” (“Uyg‘oq o‘g‘li Tirik”) – adabiy-falsafiy qissa. Shuningdek, Ibn Sino va Beruniyning fizika va falsafaga oid o‘zaro yozishmalari<sup>63</sup>.

Ibn Sinoning tabobat fani sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir. U o‘z asarlarida eng qadimgi fanlardan biri bo‘lgan tibbiyotning o‘zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, uni yangi yuqori bosqichga ko‘tardi, hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan bir qancha yutuqlarini oldindan ko‘ra bildi.

Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan tibbiy asarları 30 dan oshadi. Shulardan asosiyleri o‘zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan.

Ibn Sinoning tabobatga oid eng yirik shoh asari “*Kitob al-qonun fi-t-tib*” (“*Tib qonunlari kitobi*”) hisoblanadi. O‘z davridagi tibbiyot fanining mufassal qomusi hisoblangan bu asarda inson sog‘ligi va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. “Qonun” 1012-1023-yillar mobaynida yozilgan bo‘lib, uning qo‘lyozma nusxalari tezlik bilan tarqaladi.

Bu asar ko‘p o‘tmay Yevropaga ham yetib keldi. XII asrdayoq Kremonalik Gerard (1114-1187) “Qonun”ni arabchadan lotin tiliga tarjima qiladi va shundan keyin Yevropa dorilfununlarda tabobat fani Ibn Sino asarları bo‘yicha o‘qitila boshlaydi. “Qonun” o‘zining asosiy qo‘llanma va darslik sifatidagi qiymatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. Birinchi bor u Uyg‘onish davridagi insonparvarlik markazlaridan biri bo‘lgan Strasburg shahrida 1473-yili bosilib chiqadi. Umuman “Qonun” 40 martadan ortiq to‘la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarining nashri esa son-sanoqsizdir.

Uning arabcha matni 1593-yiliyoq Rimda nashr etilgan edi. Keyinchalik XIX asrda bir necha bor qaytadan bosildi. “Qonun”ning ayrim qismlari ingлиз, nemis va fransuz tillariga ham tarjima qilingan bo‘lsa-da, bu muhim asar keyingi vaqtlargacha hozirgi zamon tillaridan birontasiga to‘la holda tarjima qilinmagan edi. Bu qiyin va mas’uliyatli ishni o‘zbek sharqshunoslari tabiblar bilan hamkorlikda amalga oshirdilar: “Qonun”ning beshala kitobi o‘zbek va rus tillarida 1954-1961-yillar mobaynida Toshkentda nashr etildi. 1980-yili Ibn

<sup>63</sup> Ўрга асрлар Шарқининг машхур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. III. Салихов ва бошк. – Т.: O‘zbekiston, 2016. – Б. 58-59.

Sino tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan "Qonun"ning ikkinchi tuzatilgan nashri e'lon qilindi.

Ibn Sino "Qonun"ni besh kitobga bo'lgan:

I kitobda tabobatning umumiy nazariyasi: inson anatomiysi va fiziologiyasi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning alomatlari, davolashning umumiy asoslari, badantarbiya va sog'liqni saqlash tadbirlari bayon etilgan.

II kitob dorishunoslikka bag'ishlangan bo'lib, unda o'simlik, ma'dan va hayvonlardan olinadigan 811 sodda dorining nomini alifbo tartibida joylashtirib ta'riflanadi va har birining qaysi kasallikkaga davo ekanligi ko'rsatiladi.

III kitobda "juz'iy" kasalliklar, ya'ni insonning boshidan tovonigacha har bir a'zosida bo'ladigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari bayon etiladi.

IV kitob insonning muayyan bir a'zosiga xos bo'limgan, balki butun gavdasida yuz berishi mumkin bo'lgan kasalliklarga bag'ishlangan.

V kitobda murakkab dorilar, ya'ni tabiatda tayyor holda uchramaydigan davolar (turli taryoklar, ma'junlar, malhamlar, hab dorilar va h.k) ni tayyorlash to'g'risida gap boradi<sup>64</sup>.

Biz doim g'urur va iftixor bilan e'tirof etamizki, tibbiyot tarixida eng mashhur bo'lgan, "Tib qonunlari" deb atalgan o'zining bebafo fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo'nalişlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos soldi. Bejiz emaski, bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lgan va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o'qitib kelingan<sup>65</sup>.

Noyob fazilatlar sohibi bo'l mish mashhur alloma Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliv o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida "Meditisina", "Sog'lom turmush tarzi" degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani,

<sup>64</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари. III жилдилик сайланма. I жилд. – Т.: Фан, 1993.

<sup>65</sup> Karimov I. O'zbekiston erishgan yutuq va martalar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. 22-jild. "O'rta asrlar sharq allomalari va mutasakkirlarining tarixiy merozi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojидagi roli va ahamiyatiga" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidegi nutqidan. 2014-yil 15-may. – T.: O'zbekiston, 2015. – B.136.

albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor<sup>66</sup>.

Shu o'rinda tabib bilan hozirgi zamon shifokori o'rtasidagi mushtarak jihatlar va o'ziga xos tomonlari haqida bir og'iz so'z aytib o'tamiz. Asl tabiblar hozirgi haqiqiy shifokorlarimiz singari odam anatomiyasini, uning borliq dunyo bilan, tabiatning o'zgaruvchan iqlimi, shart-sharoiti bilan bog'liq tirik va nozik vujud ekanini yaxshi bilishgan. Tabib bilan shifokor o'rtasidagi birinchi farq shundan iboratki, tabib bemorga tashxis qo'yishi barobarida dori tayyorlash ilmini va amaliyotini ham bilgan, oddiy-u murakkab dori-darmonlarni o'zi tayyorlagan, ya'ni ham shifokorlik, ham provizorlik ixtisoslarini egallagan va bularni o'zgalar yordami va ishtirokisiz bevosita o'zi amalgal oshira olgan mutaxassisiga tabib deyilgan. Tabibi hoziq bo'l mish Ibn Sino Turkiston xalq tabobatchiligin turmush orqali, saroy kutubxonasida mutolaa qilgan kitoblari orqali chuqur o'rgangan, anglab yetgan, o'z tafakkuri bilan yanada boyitgan va amaliyotda mohirona qo'llagan. Binobarin, bu buyuk ajdodimiz xalqimiz tabobatchiliga ijodiy yondoshib, uni ilmiy tavsiflab, yangi yuqori bosqichga ko'tarib, xalqiga fan sifatida tortiq etdi, jahonga tanitdi. Hozirgi zamon tibbiyat fanining asosiy tili bo'l mish lotinchaga dastlab tarjima qilingan tibbiyatga doir asarlardan biri ayni "Tib qonunlari" ekani ham shu fikrimizni tasdiqlab turibdi. Turkiston xalq tabobatchiliqi xalqimiz dahosining tibbiyat sohasidagi yorqin bir ko'rinishidir. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) shu sohaning daholaridan biri sifatida jahon tamadduniga daholarcha hissa qo'shgan<sup>67</sup>.

Ibn Sinoning tibbiyatga oid muhim asarlaridan ikkinchisi nazm (she'riy usul) bilan yozilgan "*Tibbiy urjuza*" kitobidir. Bu kitob 1326 bayt (2652 misra)dan iborat katta she'riy asardir. Kitob tib ilmini o'rganuvchi talabalarga darslik sifatida yozilgan.

Bu asar, asosan, tibbiyotning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Lekin unda amaliy tibbiyot haqida ham yetarli ma'lumot berilgan. "*Tibbiy urjuza*" o'z mazmuni va ahamiyati jihatidan "Qonun"dan uncha qolishmaydi. "Qonun"da bayon etilgan mavzu va masalalar "*Urjuza*" da qisqa va ixcham qilib keltirilgan.

<sup>66</sup> Каримов И. Юксак мънавият – ингилмас куч. – Т.: Мағнавият, 2008. – Б.27.

<sup>67</sup> Иброҳимов А. Бизким, ўзбеклар. Миллий давлатчилигимиз асослари ҳақида мулоҳазалар. – Т.: Sharq, 2011. – Б.140-141.

**“Tibbiy urjuza” ikki bo‘limdan iborat:**

**Birinchi bo‘limda** tibbiyotning umumiy nazariy masalalari yoritilgan. Unda, xususan, tibbiyotning tafsiri, uning qismlari, unsurlari, a’zolar, mijozlar, xiltlar, ruh (jon), quvvatlar haqida ma’lumotlar beriladi. So‘ng inson organizmiga havo, ovqatlar, ichimliklar, uyqu va uyqusizlik, harakat va harakatsizlik, nafsoniy kayfiyatlarining ta’siri ko‘rsatilgan. Shundan keyin ayrim a’zolar kasalliklari, ularning belgilari, tomir urushini tekshirish va shunga asosan kasallikni aniqlash usullari bayon etilgan. Bulardan tashqari siyidik, axlat, balg‘am, teri va terni tekshirib, kasallikka dalil topish usullari keltirilgan. Qon, safro, savdo va xiltning g‘alaba qilishi (ustun kelishi)dagi belgililar ko‘rsatilgan.

**Ikkinci bo‘lim** tibbiyot amaliyotiga bag‘ishlangan. Bu bo‘lim o‘z navbatida to‘rt qismga bo‘lingan.

1-qismda kishi sog‘lig‘ini saqlash tadbiri bayon etilgan.

2-qismda bemorlarga beriladigan dori va ovqatlar haqida so‘z yuritiladi.

3-qismda qo‘l bilan amalga oshiriladigan muolaja usullari (jarrohlik) bayon etilgan.

4-qismda chiqqan-singanlarni davolash ko‘rsatilgan. Masalan, chiqqan bo‘g‘inlarni (suyakni) joyiga solish.

Ibn Sinoning bu asosiy “Tibbiy urjuza” kitobidan tashqari, tibbiyotga oid yana bir necha she’riy “Urjuza” kitoblari bo‘lgan. Ular tibbiyotning ayrim maxsus masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bizga quyidagilari ma’lum:

1. “Tana tuzilishiga oid urjuza” kitobi. Bu kitob 98 baytdan iborat bo‘lib, unchalik katta emas.

2. “Jinsiy mayllik haqida urjuza”.

3. “Sog‘liqni saqlash haqida tibbiy urjuza”. Bu 15 bayt (30 misra)dan iborat kichik she’riy asardir.

4. “Yilning to‘rt fasli haqida tibbiy urjuza”. Bu kitob ham unchalik katta emas. Hammasi bo‘lib 121 bayt (242 misra)dan iborat.

5. “Sinab ko‘rilgan dori-darmonlar haqida tibbiy urjuza”. Bu asarda Ibn Sino o‘zi uzoq vaqt kasallarda sinab ko‘rgan har xil dori-darmonlar haqida so‘z yuritgan.

6. “Gippokratning vasiyatlari haqida urjuza”.

Bu asar 93 baytdan iborat.

7. “Tibbiy maslahatlar haqida urjuza”.

Bu asar 72 baytdan iborat.

Ibn Sinoning tibga oid muhim asarlaridan yana biri “*Tibbiy qoidalarda uchraydigan xatolarni tuzatish*” kitobidir. Bu kitob “*Tadbirda yo’l qo’ylgan har xil xatoliklarga qarshi chora ko’rish yo’li bilan tanaga yetkazilgan turli zararlarni yo’qotish*”, deb ham ataladi.

Ibn Sino ta’kidlab o’tganidek, tibbiyotning asosiy vazifasi kasallikning oldini olish, ya’ni uning rivojlanishiga yo’l qo’ymaslikdir. Bu masalaga alloma o’zining bir necha asarini bag’ishlagan. Shulardan biri “*Salomatlikni saqlash haqida risola*”dir. Bu kitobcha 13 bobdan iborat. Asarda so’z, asosan, shaxsiy gigiyena haqida boradi.

Ibn Sinoning boshqa asarlari tibbiyotning ayrim xususiy masalalariga bag’ishlangan katta-kichik kitoblardan iborat. Ular orasida 1-2 sahifalilar ham bor<sup>68</sup>.

Yevropaning Rojer Bekon (1214-1291), Dante (1265-1321), Leonardo da Vinchi (1452-1519), Mikelanjelo (1475-1564), Vezaliy (1514-1564), Volter (1694-1778), Gyote (1749-1832) kabi mutafakkirlari va madaniyat arboblarining ilmiy, falsafiy dunyoqarashi Ibn Sino asarlari ta’sirida shakllandi<sup>69</sup>.

Ibn Sinoning falsafiy merosi allaqachon jahon falsafasi tarixida munosib o’rin egallagan va hozirgi kunda qator zamonaviy ilmiy kashfiyotlar va yangi falsafiy g’oyalar uyg’unligida ularga bo’lgan qiziqish barqaror saqlanib qolmoqda. Ulug’ mutafakkirning eng yirik falsafiy yutuqlaridan biri uning Sharq falsafasidagi yangi yo’nalish asoschilaridan biri ekanligidadir. Bu Aristotel qarashlarining tiklanishi va rivojlanishi bilan bog’liq bo’lib, jahon falsafasi taraqqiyotida alohida bosqichga aylandi va keyinchalik o’rta asr G’arbiy Yevropa falsafasi taraqqiyotining muhim manbalaridan biri bo’lib xizmat qildi.

Ibn Sino o’zining “*Mantiq-ul-mashriqiyin*” (“Sharqchilar mantig’i”) asari muqaddimasida Aristotel falsafasiga qaraganda o’z falsafiy qarashlarining yangiligi va o’ziga xosligini ta’kidlaydi. Ibn Sino o’z ilmlar tasnifini yaratdi. Bu tasnif Forobiy tasnifi bilan bir qatorda, Sharq va G’arb olimlariga o’sha paytda va keyinchalik ham

<sup>68</sup> Isayev Y. Abu Ali ibn Sino. – T.: Tafakkur, 2015. – B. 10-11.

<sup>69</sup> Ўрга асрлар Шарқининг машхур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. Ш. Салихов ва бошк. – Т.: Ozbekiston, 2016. – B. 61.

olamni, olam hodisalari va u haqdagi fanlarni yaxlitlikda anglashga ko'maklashdi<sup>70</sup>.

Olimning bizgacha yetib kelgan umumiy falsafaga oid muhim asarlari quyidagilar:

I. **"Kitob ash-shifo"**. Allomaning eng yirik falsafiy asari hisoblanadi, uni o'z davrining ilmiy qomusi desa bo'ladi. Bu asar 4 qismidan iborat: 1) mantiq; 2) tabiiy fanlar (bu qismda minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo'limlarda gap yuritiladi); 3) matematika, ya'ni riyoziyot ilmlari (bunda arifmetika, handasa, astronomiya va musiqa fanlari haqida bahs boradi); 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning tabiiy fanlar va metafizikaga tegishli qismlari 1887-88-yili Tehronda toshbosmada nashr etilgan, mantiq qismi esa 1962-yildan boshlab Qohirada bir necha jilda bosilgan. U biron tilda ham to'la ravishda tarjima etilmagan, faqat ayrim bo'limlarigina lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr etilgan.

II. **"Kitob an-najot" ("Najot kitobi")**. Bu kitobda "Kitob ash-shifo"ning mazmuni qisqartib bayon etilgan. Uning arabcha matni 1593-yil Rimda, 1913 va 1933-yillari Qohirada bosilgan. Ayrim qismlari suryoniy, ibroniy, lotin, nemis, fransuz va rus tillariga tarjima etilgan.

III. **"Al-ishorat-va-tanbihot" ("Ishoralar va tanbihlar")**. Bu Ibn Sinoning eng so'nggi yirik asari bo'lib, unda olim falsafaning asosiy masalalarini qisqa iboralarda bayon etgan. Bu asarning arabcha matni Leydenda (1892), Qohirada (1947), Tehronda (1864), Istanbulda (1873) nashr etilgan. U fransuz (1951) va fors tillarida ham bosilgan (1937, 1954).

IV. **"Donishnoma" ("Bilim kitobi")**. Bu Ibn Sinoning fors-dariy tilida yozilgan falsafiy asarlaridan eng muhimi hisoblanadi. Uning forscha matni Haydarobodda (1891) va Tehronda (1897, 1952) nashr etilgan, 1957-yili Dushanbeda ruscha tarjimasi bosilib chiqqan.

Ibn Sino bu asarlarida o'zidan oldingi va o'z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir falsafa yaratdiki, bu falsafani o'rta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho'qqilaridan biri deb ta'riflash mumkin<sup>71</sup>.

Ibn Sino, shuningdek, Markaziy Osiyo hamda butun Yaqin va O'rta Sharq olimlarning eng katta yutuqlaridan biri voqelikni tajriba

<sup>70</sup> Ўрга асрлар Шарқининг машҳур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. III. Салихов ва бошк. – Т.: O'zbekiston, 2016. – Б. 122.

<sup>71</sup> Абу Али ибн Сино. Тиббий ўйтгилар. Тузучилар: Каримов У, Каримова С. – Т.: Мехнат, 1991. – Б.8-9.

orqali bilishga murojaat etganliklarida bo'lib, bu keyingi davr Yevropa ilm-fanidagi tajribaviy-eksperimental usullarning rivojlanishida muhim manbalardan biriga aylandi. Tabiiy ilmlar va falsafiy tadqiqotlarni uyg'unlashtirganligi bois, Ibn Sino tajribaviy-eksperimental yondashuvlarni qayta anglashga ma'lum konseptual talqin nuqtayi nazaridan yondashadi.

Ibn Sinoning jahon ilm-fani, shu jumladan, falsafasidagi ilmiy merosining o'rni va ahamiyati shundaki, bu ilmiy meros Sharq Uyg'onish davri olimlari yutuqlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u keyinchalik G'arbiy Yevropa Uyg'onish davrinining manbalaridan biriga aylandi.

Ibn Sino fikricha, avval tog'-toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida boshqa jonzotlardan aqli, tafakkur qilish qobiliyati va tili bilan farq qiluvchi inson vujudga kelgan. Hodisalarни chuqur bilish, fan bilan shug'ullanish insongagina xosdir. Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Ibn Sino tushunchasida bilimlarni chuqur o'rganish orqali Allohn'i anglash mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Ibn Sino mantiqni ilmiy bilishning, mavjudotni o'rganishning ilmiy usuli deb biladi. "Mantiq", deb yozadi Ibn Sino, "*insonga shunday bir qoida beradi-ki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi*". U mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini chuqur o'rgandi, mantiq fanini O'rta Osiyonning ulug' mutafakkiri va qomusiy olimi Forobiy (873-950)dan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi<sup>72</sup>.

Ibn Sino boshqa tabiiy fanlar qatori kimyo bilan ham shug'ullangan va unga oid asarlar yozgan. Bu asarlarini turli davrda yozganligi uchun ularda Ibn Sinoning kimyoga bo'lgan munosabatining evolyutsion o'zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo haqida aytgan fikrlari o'sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg'or edi. Ibn Sino 21 yoshida, ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va o'zidan avvalgi kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida "*Risola as-san'a ilal-Baraqiy*" ("*Alkimyo bo'yicha al-Baraqiyga bag'ishlangan risola*") nomli kichik asar yozgan. Lekin 30 yoshlarga borib, ilmiy tajribasi

<sup>72</sup> Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – E. 82-83.

ortgan yosh olim bu sohadagi urinishlar zoye ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va “Risola al-iksir” (“Iksir haqida risola”) asarida kimyoviy yo‘l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi. 40 yoshlarda yozishga kirishgan “Kitob ash-shifo”da esa kimyogarlarning transmutatsiya sohasidagi barcha harakatlari behuda ekanligini nazariy jihatdan isbotlashga urinadi. Uning fikricha, o‘sha vaqtida ma’lum bo‘lgan har bir metall o‘zicha alohida bir modda bo‘lib, kimyogarlar o‘ylagandek bir yagona metallning turi emas. U oltinning alohida bir elementligini bilmasa-da, uni narsalardan yasab bo‘imasligini ham anglagan edi. Olimning bu nazariy mulohazalari o‘rta asr kimyosining ilmiy kimyoga o‘sib o‘tishida muhim rol o‘ynaydi<sup>73</sup>.

Abu Ali ibn Sinoning mineralogiya (ma’danshunoslik)ga qo‘shgan hissasiga keladigan bo‘lsak, u birinchi bo‘lib cho‘kma tog‘ jinslarini ikkita genetik – daryo va dengiz turlariga ajratadi, u gil va tuzlarni ham shular orasida ko‘rib o‘tgan. Ibn Sino gillarni barcha turdagи tog‘ jinslarining yemirilish mahsuli sifatida talqin qilgan. Tuzlarning cho‘kishini suvning bug‘lanishi bilan izohlagan.

Ibn Sinoning mineralogiya sohasidagi asosiy xizmatlaridan biri, uning minerallar tasnidir. Olim ularning 4 turini ko‘rsatib o‘tadi: toshlar; eritiladigan moddalar (metallar); oltingugurt, ya’ni yonuvchi moddalar; tuzlar. Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tasnif XIX asrga qadar yaratilgan barcha tasniflarning asosi bo‘lib xizmat qildi. Undan A.G.Verner (1774), T.Bergmann (1780) kabi yirik olimlar ham foydalanganlar<sup>74</sup>.

Ibn Sinoning geografiya va geologiya fanlari bo‘yicha ilgari surgan fikrlari og‘izdan-og‘izga o‘tib, o‘sha paytlarda fanda mavjud ba‘zi noto‘g‘ri fikrlarning qayta tekshirilishiga sabab bo‘lgan. G‘arbiy yevropaliklar I asr olimi Ptolemeyning kitoblariga asoslanib, *ekvator atrofi jazirama issiq bo‘ladi, u yerlarda hamma narsa kuyib ketadi, u tomonlarda hayot yo‘q, deb bilganlar*. Ammo XV asr boshida, Portugaliya qiroli Genrix Dengizchi asir olingan musulmon olimlarini so‘roq qila turib, g‘alati bir mulohazani eshitgan: “*Garchi oftob naq tepangizda tursa ham, ekvator eng issiq joy emas, u joyning issig‘ini kechki shabada ancha bo‘shashadiradi. U tomonda hayot mavjud, mashhur olimimiz Ibn Sino shunday deb yozganlar*”. Ibn Sinoning bu

<sup>73</sup> O‘sha asar. – B. 84.

<sup>74</sup> Ўрга асрлар Шарқининг машҳур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. III. Салихов ва бошк. – Т.: O‘zbekiston, 2016. – B. 71.

dadil fikri Ptolomey ta'limotiga tamomila zid bo'lsa-da, buyuk geografik kashfiyotlar davrida amalga oshirilgan bir qator sayohatlarga dalda bergani, shubhasiz<sup>75</sup>.

Ibn Sino botanika masalalari bilan ham juda ko'p shug'ullandi, chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o'simliklardan olinadi. U "Kitob sh-shifo"ning "An-Nabotot" ("O'simliklar") qismida o'simliklarning turlari, paydo bo'lishi, oziqlanishi, o'simlik a'zolari va ularning vazifalari, ko'payishi hamda o'sish sharoitlari haqida yozadi, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ham ish olib boradi.

Ibn Sino yoshligidan astronomiyaga qiziqqan va bu qiziqish umrining oxirigacha saqlangan. U 8 ta mustaqil risola hamda "Kitob ash-shifo" va "Donishnoma"ning riyoziyot qismlarida astronomiyaga alohida boblarni bag'ishlagan. Ptolemyning "Almagest"ini qayta ishlab, shu asosida amaliy astronomiya bo'yicha qo'llanma yaratgan. Ibn Sino Jurjon shahrining geografik uzunligini o'z davri uchun butunlay yangi bo'lgan usul – Oyning eng baland nuqtasini kuzatish orqali aniqlab bergen. Beruniy "Geodeziya" asarida bu usulning to'g'riliqi haqida gapirib, uni faqat Ibn Sino nomi bilan bog'laydi. Bu usul Yevropada 500 yildan keyin (1514-yil) astronom Verner tomonidan yangidan kashf qilindi.

Matematika sohasida Ibn Sino yunon matematigi Yevklid (miloddan avvalgi III asr)ning "Negizlar" kitobini qayta ishlab, unga sharh va to'ldirishlar kiritdi, geometrik o'chamlarga arifmetik terminologiya qo'lladi, "son" tushunchasi doirasini "natural son"dan ancha kengaytirdi<sup>76</sup>.

Ibn Sino musiqa bobida Forobiyning ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi "Javome" ilm ul-musiqiy" ("Musiqa ilmiga oid to'plam") asari "Kitob sh-shifo"ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. "An-Najot", "Donishnoma"larda musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud, "Tib qonunlari", "Risolai ishq" va boshqalarda musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan. Yevropada keyinchalik "sof tizma (tovushqator)" deb atalgan musiqaviy tuzilmani birinchi bo'lib asoslagan. Ibn Sino musiqiy go'zallik haqida mukammal ta'limotni ilgari surib, musiqani

<sup>75</sup> Гадоев К, Бердиева С. Жаҳонгашта сайёх-олимлар: Буюк тадқиқотчилар ва сайёхлар ҳакида. – Т.: O'zbekiston, 2012. – Б. 43-44.

<sup>76</sup> Aminov M, Hasanov F. Buyuk sjodolarimiz. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – B. 82-83.

hamohanglikning eng kamolga yetgan turi deb biladi. Ritm masalalariga Sharqning boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizimi bilan bog'liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo'lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamonaviy musiqa nazariyalariga mos keladi. O'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan<sup>77</sup>.

Ibn Sino olim bo'lish bilan birga iste'dodli adib hamdir. Uning forsiy tilda yozgan she'rlar devoni, turli bilimlar bo'yicha bahs yuritiladigan "Donishnoma" kitobi, arab tilida yozilgan "Solomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Qush" va boshqa qissalari bizga qadar yetib kelgan. Ibn Sino xalq og'zaki ijodidagi termalar asosida yozma adabiyotga ruboiy janrini olib kirdi; arab va fors tilida she'rlar yozdi. O'z g'azal va ruboiylarida shoir go'zallikni, ilm-fanni targ'ib etadi, jaholat, zulm-zo'rlikni qoralaydi. Bir ruboysiда ilmda kamolot cho'qqisiga yetishsa-da, hamon qadrlanmaganidan shikoyat qilsa, boshqa birida o'z ilmiy qudratini ta'kidlaydi.

*Qora yer qa'ridan to avji Zuhal,  
Koinot mushkulni barin men qildim hal.  
Ko'p chigal tugunni angladim, yechdim,  
Yechilmay qolgan birgina ajal.*

O'z qissalarida Ibn Sino mardlikni targ'ib qilib, munofiqlik, sergaplik, yolg'onchilik, ishyoqmaslikni, riyokor imomlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi. Ibn Sino kishilarni ilm-fanni o'rganishga, kasb-hunar egallahsga da'vat etadi. Ibn Sino asarlari O'rta Osiyo xalqlari pedagogik qarashlari, fani tarixini o'rganishda ham eng muhim sarchashmalar hisoblanadi. Ulug' olim va iste'dodli adibning nodir asarlari biz uchun hamisha aziz va mo'tabardir<sup>78</sup>.

Abu Ali ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, Muhammad Umar Sa'diddin at-Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutaffakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano

<sup>77</sup> O'sha asar. – B. 86.

<sup>78</sup> Ҳомидий Ҳ. Кўхна шарқ дарғалари. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 70-71.

Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Aligeri Dante va boshqalar ibn Sinoning ilg‘or fikrlaridan o‘z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo‘r hurmat bilan tilga oldilar<sup>79</sup>.

Xullas, Abu Ali ibn Sino va uning asarlari ahamiyati ko‘plab asrlar davomida bugungi kunga qadar beqiyos va qimmatlidir. Bugungi kunda ham allomaning asarlari ko‘plab olimlarning asosiy manbalari bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

### 3.2. Avitsenna va zamonaviy tabobat

Abu Ali ibn Sino shug‘ullangan ilmlarning doirasi qanchalik keng, taddiqot darajasi qanchalik chuqur bo‘lmashin, olimning nomi tilga olinganda odamlar birinchi navbatda uni buyuk tabib sifatida eslaydilar. Chunki u inson uchun eng zaruriy, qadrli bo‘lgan narsa – uning salomatligi uchun kurashgan haqiqiy fidoyilardan edi. Jahon fani tarixida tabobat sohasida hech bir olim ibn Sinochalik shuhrat topmagan edi<sup>80</sup>.

Tabobat inson tanishgan bilimlarning eng qadimiysi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining hamma davrlarida rivojlanib kelgan. Ibn Sino yashagan davrgacha bu sohada ancha yutuqlarga erishilgan, ya’ni tib hunar darajasidan ilm darajasigacha ko‘tarilgan edi<sup>81</sup>. Bu vaqtga kelib, tib ilmini o‘rganayotgan yosh olim ixtiyororda antik dunyo olimlarining tibbiy asarlari, Gundishopur tibbiy maktabi (IV asr) vakillarining ilmiy merosi va nihoyat, IX–X asrda yashab, arab tilida asarlar ta’lif etgan musulmon tabiblarning kitoblari bor edi<sup>82</sup>.

Ibn Sino ulardan kitobi bilimlarini olgan holda Markaziy Osiyo hududida qadimdan mavjud bo‘lgan amaliy tibbiy bilimlarni ham o‘zlashtirib, o‘z amaliy tajribasini boyitdi va ana shularning hammasini aql-zakovati elagidan o‘tkazib, bir tizim va tartibga soldiki, bunday ishni unga qadar hech kim amalga oshirmagan edi. Shuning uchun ham ibn Sinoning tibbiy asarlari, xususan “Tib qonunlari” bir necha asrlar davomida Sharq va G‘arb tibbiy bilimlarning asosiy manbai bo‘lib keldi.

<sup>79</sup> Aminov M, Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – B. 92.

<sup>80</sup> Матников М., Сатликов А. Жаҳон тарихи ва маданийтида Хоразм. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б. 106.

<sup>81</sup> Жабборов И.М. Юксак маданийт ва ноёб маънавият маскани (тарихий этнографик лавҳалар). – Т.: O‘zbekiston, 2012. – Б. 191.

<sup>82</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари Биринчи китоб, учинчи нашри. – Т.: Muhamarr, 2013. – Б. 56.

Ibn Sinoning tabobat sohasidagi yutuqlari o'sha davr tabobatini bir necha asrlarga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamон tabobatiga yaqinlashtirdi ham. Olim yashagan davrda bu sohada antik olimlarning, xususan, Gippokrat, Galen, Dioskorid va boshqalarning ta'limoti ustuvor edi. Ibn Sino ham o'z tibbiy faoliyatida ularning nazariy qarashlari va amaliy ko'rsatmalariga tayandi, lekin shu bilan birga ularni Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo, Sharq olimlarining hamda o'z tajribalari va bilimlari asosida rivojlantirdi va boyitdi.

Ibn Sinoning daho tabib sifatida shuhurat qozonishining asosiy omillaridan biri – uning tib nazariyasini, xususan anatomiya – inson gavdasi tuzilishini mukammal bilishligidir. Bosh suyagining tuzilishi, tishlarning tuzilishi to'g'risida u Galenga ergashgan holda to'g'ri fikrlagan, uning ko'zning anatomiysi, ko'rish jarayonining qanday sodir bo'lishi va unda ko'z qorachig'ining roli, ko'z muskullarining joylashishi xususida yozganlari zamonaviy oftalmologiyaga yaqindir. Asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funksiyalari to'g'risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa, amaliy anatomiyaning asoschisi deb tan olingan rus olimi N.I.Pirogovni ibn Sinoning izdoshi deyishga asos beradi.

Ibn Sino o'tkir diagnost edi. Uning ba'zi tashxis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Perkussiya (a'zoga urish orqali diagoz qo'yish)ni, xususan, aspit va meteorizmni farqlashda, istisqoni aniqlashda (qoringa sekin urish orqali) qo'llagan. Bu usul 600 yildan keyin venalik tabib Leopold Aueyenbrugger (1722-1809) tomonidan qayta kashf qilinib, yana 50 yilda so'ng amaliyotga kirgan. Olim qon tuftash holatlari va nafas olish turlarini chuqr o'rganib, ulardan tashxisda foydalangan. Ibn Sino turli kasalliklarning differentials diagnoztikasida va gavdaning umumiyl holatini aniqlashda tomir urushi, siyidik va najasdan olinadigan belgilarga katta e'tibor beradi. Buni esa, 1775-yilda ingliz olimi Dobson aniqlagan.

Tabobat tarixida birinchi bo'lib Ibn Sino vabo bilan o'latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlash kerakligini ta'kidlagan, meningit, oshqozon yarasi, sariq kasalligi, plevrit, moxov, zaxm, qizamiq, suvchechak, kuydirgi kabi kasalliklarning belgilari va kechim jarayonini to'g'ri tasvirlab bergen. Quturish kasalligining ko'rinishlari, uning yuqumli xarakteri, bemorning bu kasallikdagи holatlarini juda to'g'ri aniqlagan.

1804-yilda yevropalik olim Sinke quturgan hayvonlarning so‘lagi yuqumliligini tasdiqlagan<sup>83</sup>.

Psixik va asab kasalliklarini tavsiflash va davolashga ham olim ko‘p yangiliklarni kiritdi. Bu kasalliklarni davolashda u atrof-muhitning, iqlimning, parhez va jismoniy mashqlarning ta’siriga hamda bemor kayfiyatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarga katta e’tibor beradi. Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga – tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo’llash (qon olish va h.k)ga ahamiyat berish kerakligini aytadi.

Kasallikni davolashda va har bir kasallik uchun o‘z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi, jigar kasalliklarida ko‘proq mayiz, anjir, anor suvi iste’mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolash usullarining qadimiyy ko‘rinishidir.

Ibn Sinoning jarrohlik sohasini rivojlantirishdagi xizmatlari ham ulkandir. U o‘z tibbiy asarlarida zamonaviy jarrohlikda qo’llanib kelayotgan ayrim usullarni bayon qiladi. Yiringli shishlarni kuydirish yoki pichoq bilan yorish, bavosir shishlarni tikish, tampon, o’tkir modda yoki tikish bilan qon to’xtatish, tomoqni kesib, nay qo’yish (traxeotomiya) shular jumlasidandir. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha “Avitsenna usuli” deb ataladi. Umurtqanining qiyshayishini ibn Sino o‘zi ixtiro qilgan yog‘och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyaklarni gipslash usuli ham ibn Sino tomonidan keng qo’llangan, lekin u ham keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852-yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan.

Hozirda ko‘z jarrohligida qo’llanayotgan usullarning qariyb barchasi ibn Sinoga ma’lum bo’lgan. Yomon sifatlari saraton (rak) shishlari, qovuq toshlarini olish, istisqo, bavosirning operatsiyalari, bosh suyagining operatsiyasi va boshqalar ibn Sino qo’llagan muolaja usullaridandir. Jarrohlikda anesteziya (og‘riqni sezdirmaslik) masalasiga ham ibn Sino katta e’tibor bergan. Buning uchun u afyun, mingdevona, nasha va shu kabi narkotik ta’sirga ega bo’lgan dorilardan foydalangan<sup>84</sup>.

<sup>83</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Биринчи китоб, учинчи нашри. – Т.: Muhamarrir, 2013. – Б. 58.

<sup>84</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Биринчи китоб, учинчи нашри. – Т.: Muhamarrir, 2013. – Б. 58.

Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati katta ekanligini uqtirgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo'li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda bir kunlik isitma bilan og'rishni foydali deb biladi. Avstriyalik psixiatr Yu.Vagner-Yaureg (1857-1940) shunday usulni qo'llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927-yili Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan. U antik davr olimlarining farmatsiyasi asosida musulmon Sharqida paydo bo'lgan yangi farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda asal o'mida ko'p dorilarning qand (shakar) asosida tayyorlanishi ham ibn Sinoning xizmatidir. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir.

Tabiiy dorilar bilan bir qatorda ibn Sino birinchilardan bo'lib, kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimmi, u oziq-ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlardan (meva, sabzavot, sut, go'sht va h.k) boshlagan. Dori tayyorlashda bemorning mijozni (issiq, sovuq, xo'l, quruq), yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino farmatsiyasi juda puxta o'ylangan farmokologik tadqiqot usuliga asoslanganligi bois o'rta asr Yevropa farmatsiyasidan ancha o'zib ketdi va zamonaliviy dorishunoslikka yaqinlashdi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi zamonaliviy farmakopeyalardan mustahkam o'rin olgan.

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino o'zining ko'p qirrali ijodida fanning turli jabhalarini qamrab oldi va ularning rivojiga o'z ulushini qo'shdi. Aql-zakovati tufayli falsafa va tib ilmlarini shunday darajaga ko'tardiki, Sharq va G'arbdagi ko'pgina ilm sohiblarining dunyoqarashi uning ta'sirida shakllandi. Olim asarlaridagi dalil, yangi ilmiy g'oyalar, insонни ilm-ma'rifatga chorlovchi fikrlar hali yangi yangi avlodga xizmat qilishiga ishonamiz.

### 3.3. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari

Ibn Sinodan 280 dan ziyod asarlar bizga meros bo‘lib qolgan. Ularning 50 tasi tibbiyotga, 40 dan ziyodrog‘i tabiiy va ijtimoiy sohalarga, 3 ta risola musiqaga, 185 tasi falsafa, mantiq, psixologiya, ahloq-odob va ijtimoiy-siyosiy masalalarga taalluqlidir. Olimning asarlari orasida “Insodadolat kitobi”, “Tib qonunlari”, “Bilimlar kitobi” va boshqalar g‘oyat e‘tiborga loyiqlidir.

Ibn Sino ta‘biricha, falsafa nazariy va amaliy falsafadan iborat. U borliq, bilish, ahloq-odob, ijtimoiy-siyosiy muammolariga, mantiq masalariga katta qiziqish bilan qaragan. Borliq vujudi vojib (Tangri) va vujudi mumkin (yaratilgan)dan iboratdir. Vujudi vojib vujudi mumkining sababi, birinchi mohiyatidir. Vujudi vojibga abadiy faollik xos. Ular o‘rtasidagi farq vaqt bilan emas, balki nafislik darajasi bilan ifodalanadi. Jismlargacha xos harakat ularning umumiy o‘zgarishi sifatida talqin etiladi. Harakat *aksidental* (jismning boshqa jism tarkibida harakat qilishi), *majburiy* (jismning harakat sababi uning mohiyatidan tashqarida) va *tabitiy* (jismning ichki harakati) harakat shakllaridan iboratdir. Vujudi vojib abadi bo‘lganligi sabali, uning oqibati bo‘lmish vujudi mumkining mavjudlik usullari – harakat, vaqt, makon ham abadiy bo‘ladi.

Ibn Sino o‘zining tabiiy-ilmiy qarashlarida jismrlarning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga ta’siri tushunchalari orqali Oy, Quyoshning odamlarga, hayvonot va o‘simgiliklar olamiga ta’sirini tushuntirib berishga harakat qilgan.

Ibn Sino o‘ziga xos falsafiy asosli, mantiqiy izchil va amaliy samarali bir tarzda o‘zining har bir alohida odam, shaxs, oila. Jamiyat, davlat oldidan ko‘ndalang bo‘lib qolayotgan, ayniqsa biz yashayotgan hozirgi zamondosh-sharoitlarida eng keskin, tashvishli, go‘yoki hal qilib bo‘lmaydigan yangidan-yangi muammolarini tug‘dirayotgan ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan butun nazariyasi, xotin-qizlarning oila, bola tarbiyasi, jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni to‘g‘risidagi o‘z zamonasidan haqiqatdan ilgarilab ketgan, bizning davrimiz muammolariga hamohang bo‘lgan ilg‘or g‘oya, fikr-mulohazalarini o‘rtaga tashlagan, tadqiq etgan.

O‘rta asr diniy mutaasibchilik hukmronligi davrida ibn Sino ilmiy asosli, salmoqli bir tarzda qo‘rqmasdan ta’lim-tarbiya, bola tarbiyasi, xotin-qizlarning oila, jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risidagi an‘anaviy kansitsuvchi, xotin-qizlarni ikkinchi darajali deb qarashni mustahkamlovchi aqida, qarash, an‘analar, urchodatlarning inson aql-zakovati, sha’niga nomunosisib ekanligi to‘g‘risidagi hur fikr xulosa,

g‘oyalarni ilgari surgan edi. Oilaning muqaddas asosi, tadbirkori, jamiyat va davlat barqarorligini ta‘minlovchi xotin-qizlarning ijtimoiy erkinligi, faolligi, davlatchilik, idora va boshqarish usullariga ham aqlan, ham iroda jihatidan, ham siyosiy samaradorlik, uyg‘unlik jihatlaridan erkaklardan kam bo‘lmagan iqtidorligi haqida bugun bir nazariya ilgari surilgan edi.

Bola tarbiyasining o‘ta mas’uliyatli, murakkab ekanligidan kelib chiqib, ibn Sino bola tarbiyasida ham oila, eng avvalo, ota-on, yaqin qarindoshlar, mahalla-ko‘y, ra‘iyat, maktab, madrasalarning urf-odat, an‘analari barobariga to‘ldirib, uyg‘unlikda ishtirok etishi, lekin, asosiy mas’uliyat ota-on zimmasiga tushishiga, bu mas’uliyat ham diniy e’tiqod yuzasidan, ham shariat qonunchiligi nuqtayi nazaridan ota-on yelkasiga Alloh taolo tomonidan yuklanganligi, bu bilan insonlar, ya‘ni, ota-on bu dunyo va u dunyo baxt-saodati, savobini topishi asoslab berilgan.

Ibn Sino merosi, dunyoqarashi, falsafiy ta‘limotining eng kam o‘rganilgan qismi – bu uning inson, ijtimoiy, tarbiya haqidagi ta‘limotlaridir.<sup>85</sup>

Mantiqiy tafakkur tarzi asosida ibn Sino insonni intellektual mavjudot ekanligini ta‘kidlab o‘tgan. Inson ezgulikni yovuzlikdan, intellektual yetuklikni yolg‘on-yashiq, adashishdan, do‘sni dushmanidan ajrata oladi. Aql – donishmandlik tarozisidir. Bilish jarayonida sezgi a‘zolari va ularga tayangan mushohada aqlning eng yaqin ko‘makchilari vazifasini bajaradi. Mantiq fani vositasida inson bilmagan narsasini oldin bilib olgan narsasi orqali bilib oladi, to‘g‘ri tafakkur yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Jonli mushohadasiz vogelikni o‘zlashtirib bo‘lmaydi, lekin sezgilar dalolatiga asoslangan empirike tushunchalar, tasavvurlar, ko‘p hollarda, hodisalar mohiyatini ochib berishga yordam beradi.<sup>86</sup>

Fan tarixchilarining ta‘kidlashlaricha, ibn Sino o‘rtas asr Sharqida birinchi bo‘lib, mexanika fanining predmeti, mazmuni va vazifalarini ko‘rsatib bergen. Bu fanning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. O‘zining mexanika ilmiga oid risolasida ibn Sino turli mexanizmlar tasnifini bayon etgan. Shu tasnifning nazariy asosini tashkil qilgan tamoyillarni tahlil qilgan.<sup>87</sup>

<sup>85</sup> O‘rtas asr Sharq allomalari va mutafakkirlari ensiklopediyasi/ Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2016. – 143 b.

<sup>86</sup> Falsafa: ensiklopedik lug‘at / O‘zR FA, I.Mo‘minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 120 b.

<sup>87</sup> Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi va innovatsiya (dixronik va sinxronik yondashuv). Monografiya. “GlobeEdit”, Latviya.2019. – 58 b.

Ibn Sinoning ilmiy ijodida ilmiy ratsionallikning talab va qoidalari rivojlantirilgan. Alloma oldklassik ilmiy tafakkur tarzini ratsionallik normalari bilan kuchaytirdi va yangi mazmun berdi.

Musulmon Sharqidagi ratsionalistik tafakkur tarzi Yevropa Renessansi ilmiy inqilobiga konseptual-nazariy zamin bo'lib xizmat qildi. Kech o'rta asrda shakllangan tabiatshunoslik g'oyalari (inersiya, impetus va boshqalar) G'arb uyg'onish davrida sodir bo'lgan kopernikcha inqilobning nazariy-g'oyaviy manbai bo'ldi.<sup>88</sup>

Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy qarashlari o'z davrining tafakkur tarzining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ular Yaqin va O'rta Sharq falsafiy tafakkur tarzi rivojida muhim o'rinnegalladi.

Ilm sohasida ibn Sino eksperimental tadqiqot va determinizm tamoyiliga asoslangan ilmiy ratsionallik tarafdoi bo'lgan. Alloma ilmiy tafakkur tarzining konseptual unsurlari bo'lgan tavsiflash, tushuntirish, ta'riflash, isbotlash, sababiyatni chuqur tadqiq qilgan. U ilmiy muammoni bir qator masalalarga bo'ladi: "shu narsa bormi?", "bu nima?", "qanday?", "nima uchun?". Ibn Sinoning yozishicha, hissiy bilim insonning ichki ruhiy olamidagi bilimni ochishga yordam bermaydi.<sup>89</sup> Demak, ibn Sino o'z davrida determinizmga asoslangan ratsional tafakkur tarzining namunalarini berdi.

"Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim, haqiqiy bilim emas" shiorini olg'a surib, ibn Sino aqliy tafakkurni mantiqiy va uslubiy andozlarini har qanday bilishning mezoni bo'lishini e'tirof etgan. Ibn Sino bilish nazariyasiga doir, xususan aql to'g'risidagi qator risolalarda tafakkurning ratsional shakllarini (uslublarini) ilmiy asosda talqin etadi va yanada takomillashtiradi<sup>90</sup>.

Ibn Sino ilmiy nazariy ratsionallik qoidalariiga yanglishish, xato, rad etilgan asos va bema'nolikning zid kelishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ilmiy tadqiqotda metafora, allegoriya, varvarizm (qo'pol stilistika)larni ishlatalish xato va yanglishishga olib keladi. Shuningdek, "Har bir hodisaning mohiyati uning sababini aniqlash yo'li bilan ochiladi", deydi Ibn Sino<sup>91</sup>.

<sup>88</sup> Sultanova G.S. Ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari "Polish science journal" Warsaw, Poland Wydawnictwo Naukowe "iScience", 2019 ISSUE 5(14). – 144 б.

<sup>89</sup> Qobulniyozova G. T. Ibn Sinoning ayrim mistik g'oyalari/falsafiy qadriyatlarining mustaqil O'zbekiston taraqqiyotidagi o'mi.(Respublika ilmiy amaliy anjuman materialari, 29 aprel). – Т.: 2011. – 24 б.

<sup>90</sup> Qo'shoqov Sh.S. Din, falsafa va fonda ijod muammosi // Mustaqillik va muhandis -texnik ziyoilalar ijodiy faollash muammolari. Jamoaviy Monografiya. – Т.: Fan, 2001. – B. 125.

<sup>91</sup> Ibn Sina. (Avisenna). Kniga znaniya // izb. Filos. Proizvedeniya: Nauka, 1980. – S. 62

Ibn Sinoning qarashlari g‘arb klassik ilmiy tafakkur tarzining shakllanishiga g‘oyaviy-nazariy, konseptual manba bo‘lib xizmat qildi.

## XULOSA

Movarounnahr zamini o‘rta asr muslimmon sharqida ma’rifat va madaniyat maskani sifatida dong taratgan o‘lka hisoblangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, Beruniy, Zamaxshariy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ibn Sino o‘zining ko‘p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. O‘z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariidagi yuqori madaniy ko‘tarinkilik, madaniy “uyg‘onish”ning ma’naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma’rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U o‘z davrida Sharq va Yevropada “Shayx ur-rais”, “Olimlar boshlig‘i”, “Tabiblar podshohi” kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo‘ldi.

Ibn Sino avvalo buyuk hakim, tabib sifatida dunyoga mashhur. Uning xalq tabobatiga qo‘sghan hissasi beqiyos ekanligi barchamizga ma’lum. Allomaning tibbiyotga oid asarlarini o‘qir ekanmiz, haqiqatdan ham o‘z davrining bilimdon va tengi yo‘q tabibi ekanligini bilib olamiz. Allomaning tabobatga oid eng yirik asarları sifatida besh qismidan iborat “Tib qonunlari”, “Kitob ash-shifo”, “Urjuza fit-tib” kabi asarlarini keltirishimiz mumkin.

Allomaning insonparvarlik borasidagi qarashlari aks ettirilgan “Hayy ibn Yaqzon”, “Solomon va Ibsol” va “Yusuf qissasi”ni o‘qir ekanmiz, alloma bu asarları orqali insonlarni bilim va ma’rifat chirog‘ini yoqishga, har bir masalaga ilmiy-aqliy yondashishga, rostgo‘y, vijdonli bo‘lishga, fan hamda madaniyatni egallashga, xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o‘zida aks ettirib, mujassamlashtirishga va inson degan ulug‘ nomni yanada yuqoriga ko‘tarishga chaqiradi. Allomaning hayot yo‘li va ilmiy merosini tadqiq qilish ishlari ko‘p asrlardan beri rivojlanib, ko‘pgina fan olimlari o‘rganganliklarini va bu ishlar hozirda ham davom etayotganligini bilib oldik. Ayniqsa, allomaning Xorazm Ma’mun akademiyasidagi faoliyatiga nazar solsak, uning ilmiy faoliyatida ko‘pgina olimlar bilan munozaralar olib

borganligini va ko‘pgina asarlar yozganligini ko‘rishimiz mumkin. Tarixda Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy o‘rtasida ilmiy masalalarda xat almashinuvlari bo‘lganligi ayniqsa diqqatga sazovor hisoblanadi. Demak, bundan ko‘rinadiki, alloma o‘zining ilmiy mushohadalarini o‘z davrining mashhur olimlari bilan doimiy yozishmalar orqali olib borganligini ko‘ramiz. Bir so‘z bilan aytganda zamonaviy tibbiyot jadal rivojlangan, davolashning ilg‘or texnologiyalari joriy etilgan bugungi kunimizda ham ibn Sino merosiga ehtiyoj susaygani yo‘q. Bobokalonimizning har bir kasallikni oldini olish va davolash usullari bugungi kun tibbiyot xodimlari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish ishlari jadal tus oldi va natijada chet el hamda O‘zbekistonda maxsus ilmiy yo‘nalish – *Sinoshunoslik* vujudga keldi. Jahonning turli kutubxonalarida ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo‘lyozmasi mavjud. Ibn Sinoning xalq tabobati yo‘lida qilgan bir qator ishlari bugungi kunda zamonaviy tibbiyotda bir qancha kashfiyotlarga tamal toshi qo‘yanligi, ya’ni bugungi tibbiyotda erishilgan yutuqlarning asosiy tub ildizi allomaga borib taqalishi shubhasizdir.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo‘sghan hissasini e’tiborga olib, Jordano Bruno ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, tabib (vrach) Galenlar bilan teng qatorga qo‘ysa, A.Dante o‘zining “Ilohiy komediya” asarida olimni Ptolomey, Yevklid, Gippokratlarga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L.Feyerbach olimni “Mashhur tabib va faylasuf”dir desa, Hindistonning buyuk davlat arbobi J.Neru o‘zining “Hindistonning ochilishi” degan asarida O‘rta Osiyo olimlarini tilga olar ekan, ibn Sino nomini alohida ta’kidlab: “Ulardan eng mashhuri tabiblar (vrachlar) podshohi degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino – (Avitsenna)dir”, deb, hurmat bilan tilga oladi. Allomaning buyuk tabib ekanligiga ko‘pgina xorijiy davlat arboblari, olimlar tan berishgan. Misol sifatida yana keltirishimiz mumkinki, 2017-yil 28-30-avgust kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Jahon tamadduni tarixida Markaziy Osiyo Renessansi” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyada: – Biz o‘tmishdagи tibbiyot yoki bugungi zamon meditsinasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, Abu Ali ibn Sino qarashlariga tayanamiz, – deydi Fransiyadagi Avitsenna assotsiatsiyasi prezidenti Mark Bonnel. – Chunki alloma asarlarida qayd etilgan fikrlar, kasalliklar alomati va ularni davolash yo‘llari

bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, ayni paytda zamonaviy tibbiyatda taklif etilayotgan ko‘plab davolash usullari va muolajalar ibn Sinoning tibbiyatga oid kitoblarida sodda tilda bayon etilgan. Shuning uchun hali buyuk tabib ilmiy merosini o‘rganish borasida katta va keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishimiz lozim”.

Alloma nomi ko‘pgina shaharlarda bugungi kunda ko‘chalarga berilgan, Buxorodagi Afshona qishlog‘ida ibn Sino muzeyi faoliyat yuritmoqda, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti ham faoliyatini davom ettirmoqda. Oliy o‘quv yurti iqtidorli talabalari uchun ibn Sino stipendiyasi joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 7-aprelda imzolangan PQ-4666-sonli “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzlusiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi takliflariga binoan respublikadagi 47 ta tibbiyot kollejlari Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari sifatida tashkil etiladigan bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, buyuk mutafakkir olim, vatandoshimiz, buyuk ensiklopedist, o‘z zamonasining eng yetuk kishisi, zamonamizning faxrli ajdodlaridan biri Abu Ali ibn Sino va uning ilmiy merosi, u yaratgan durdona asarlar doimo barcha uchun qadrli va muhim qo‘llanma bo‘lib qoladi. Kelgusi avlod ham xuddi biz kabi bu ilmiy merosni o‘rganadi va zo‘r ishtiyoy bilan qadrlaydi va yanada ko‘proq tadqiq qiladi, deb umid qilamiz.

## **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. I жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг – иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. III жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019.
3. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг асарлари ва маъruzalariidan олинган фикрлар (ўкув кўлланма). – Т.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Ibn Sino xalqaro jamg’armasini qo’llab-quvvatlash to‘g‘risida” PF-2171сон. 1999-yil 6-yanvar. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlanirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4666-son. 2020-yil 7-aprel. Lex.uz.

## **MANBALAR**

1. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. I китоб учинчи нашр. – Т., 2013.
2. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. II китоб, содда дорилар ҳакида, ЎзССР ФА нашриёти. – Т., 1956.
3. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. III китоб. – Т., 1992.
4. Абу Али ибн Сино. Тиббий ўгитлар. Тузувчилар: Каримов У, Каримова С. – Т.: Мехнат, 1991.

## **ILMIY ASARLAR VA MONOGRAFIYALAR**

1. Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаёти ва ижодий мероси. – Т.: “Фан”, 1980.
2. Ирисов А. Ҳаким ибн Сино. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
3. Маврулов А. ва бошқалар. Шарқ ренессанси даври алломалари ва мутафаккирларинин илмий-фалсафий мероси. – Т.: “Sano standart”, 2017.
4. Mirkarim O. Ibn Sino qissasi. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2018.
5. Қориев М. Таъланган асарлар. II жилд. Ибн Сино (тарихий роман). –Т.: “Шарқ”, 2000.

6. Смирнова-Ракитина В. Ўрта Осиёнинг минг йил мұқаддам яшаган жаҳоншумул олими – улуг ҳакими, риёзини, мунажжими, файласуфи, шоири ва бастакори Абу Али ибн Сино қиссаси. – Т.: “Ёш гвардия”, 1969.
7. Гадоев К, Бердиева С. Жаҳонгашта сайдёт-олимлар: Буюк тадқиқотчилар ва сайдётлар ҳақида. – Т.: “O’zbekiston”, 2012.
8. Муаллифлар жамоаси. Буюк юрт алломалари. – Т.: “O’zbekiston”, 2018.
9. Отахўжаев А. Абу Али ибн Сино (рисола). – Т.: “Abu Matbuot-Konsalt”, 2011.
10. Aminov M, Hasanov F. Buçuk ajdodlarimiz. – Т.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
11. Ҳомидий Ҳ. Кўхна шарқ дарғалари. – Т.: Шарқ, 1999.
12. Абдухалимов Б. Хоразм Маъмун Академияси. – Т.: “Sharq”, 2010.
13. Матниёзов М ва бошқалар. Хоразм тарихи. I жилд. – Урганч: “Хоразм” таҳририят – нашр бўлими, 1996.
14. Кориниёзов Т. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т.: “Фан”, 1956.
15. Қақомов А. Абу Райхон Беруний. Абу Али ибн Сино. – Т.: “Ёш гвардия”, 1987.
16. Ўрта асрлар Шаркининг машхур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. Ш. Салихов ва бошқ. – Т.: “O’zbekiston”, 2016.
17. “Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари”. – Т.: “Фан”, 1973.
18. Ирисов А, Носиров А, Низомиддинов И. Ўрта Осиёлик қирқ олим. – Т.: “Фан”, 1961.
19. Ибн Сина. (Авиценна). Книга знания//изб. Филос. Произведения: “Наука”, 1980. - С. 62
20. Раҳим А. Бухоролик улуг аллома// Абу Али ибн Сино (Авиценна) и современная медицина. Сборник тезисов и статей X Международных Авиценновских чтений научно-практической конференции. – Т.: 2019.
21. Иброҳимов А. Бизким, ўзбеклар. Миллий давлатчилигимиз асослари ҳақида мулоҳазалар. – Т.: Sharq, 2011.
22. Isayev Y. Abu Ali ibn Sino. – Т.: “Tafakkur”, 2015.
23. Матниязов М., Сатликов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Урганч: “Хоразм”, 1999.

24. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани (тарихий этнографик лавҳалар). – Т.: O'zbekiston, 2012.
25. “Ибн Синонинг илмий-маданий меросининг аҳамияти ва уни фан таракқиётидаги ўрни” мавзусидаги IX Ибн Сино ўқишлари – халқаро илмий-амалий анжумани тезис ва мақолалар тўплами. – Buroro, 2017.
26. Abu Ali ibn Sino tug'ilgan kunining 1000 yilligiga. To'plam. – T.: 1980.
27. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. – T.: 1980.
28. Buyuk allomalarimiz. Toshkent islom universiteti. – T.: 2002.
29. Qobulniyozova G. T. Ibn Sinoning ayrim mistik g'oyalari/ falsafiy qadriyatlarning mustaqil O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni.(Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari, 29-aprel). – T.: 2011. – B. 24
30. Qo'shoqov Sh.S. Din, falsafa va fanda ijod muammoasi// Mustaqillik va muhandis –texnik ziyolilar ijodiy faollash muammolari. Jamoaviy Monografiya. – T.: Fan, 2001. – B. 125.
31. Falsafa: ensiklopedik lug'at / O'zR FA, I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq ins-ti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -120 b.
32. Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi va innovatsiya (dixronik va sinxronik yondashuv). Monografiya.- Latviya: GlobeEdit, 2019. - 160 b.
33. O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari ensiklopediyasi / Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2016. – B. 612.
34. Sultanova G.S. Ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari "Polish science journal" Warsaw, Poland Wydawnictwo Naukowe "iScience", 2019. ISSUE 5(14) . – B. 142-145.

## INTERNET SAYTLARI

- 1.[www.ibn-sino.uz](http://www.ibn-sino.uz)
- 2.[www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 3.[www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
- 4.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 5.[www.kun.uz](http://www.kun.uz)
- 6.[www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com)
- 7.[www.xs.uz](http://www.xs.uz)

## MUNDARIJA

<b>SO‘ZBOSHI O‘RNIDA.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. MAVZUNING TARIXSHUNOSLIGI</b>	
<b>VA MANBASHUNOSLIGI.....</b>	<b>4</b>
1.1 Mavzuning tarixshunosligi.....	4
1.2 Ibn Sino va uning tarixda tutgan o‘rn.....	10
<b>II BOB. ABU ALI IBN SINO VA UNING ILMIY HAMKORLIK ALOQALARI.....</b>	<b>19</b>
2.1 Ilm-fan va ma’naviyat maskani (Ma’mun akademiyasi allomalari faoliyati).....	19
2.2 Ikki buyuk allomaning mubohasasi va musobaqasi.....	24
<b>III BOB. ALLOMA ILMIY MEROSINING AHAMIYATI.....</b>	<b>29</b>
3.1 Ibn Sino va uning ilmiy asarlari ahamiyati .....	29
3.2 Avitsenna va zamonaliv tabobat .....	41
3.3. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari.....	45
<b>XULOSA .....</b>	<b>48</b>
<b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR .....</b>	<b>51</b>

*Ilmiy-ommabop nashr*

**S.M.Matkarimova, Z.M.Raximova, Sh.F.Allanazarov**

**ABU ALI IBN SINO – XALQ TABOBATI VA  
ZAMONAVIY TIBBIYOT ASOSCHISI**

Monografiya

**Muharrir:** *T. TANGRIBERGANOV*

**Texnik muharrir:** *X. YAQUBOVA*

**Sahifalovchi:** *M. XO'JANIYAZOVA*

Bosishga 2020-yilning 19-oktabrda ruxsat qilindi.

Bichimi: 84x108.  $\frac{1}{16}$ .

“Times New Roman” garniturası.

Hajmi: 3,5 bosma taboq.

Adadi: 100 dona.

3-sonli buyurtma.

Bahosi shartnomा asosida.

Original maket “Xorazm nashr matbaa” tahririyatida tayyorlandi  
va matbaa bo‘limida chop etildi.

**Nashriyot manzili:**  
“Xorazm nashr matbaa” MChJ  
Urganch shahri, A. Qodiriy ko‘chasi,  
2-b uy

**Telefon:** (0362) 223-08-87  
**e-mail:** xorazmnashriyoti@mail.ru



ISBN 978-9943-6692-2-4

9 789943 669224